TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

RAHMATOV MARDON MEHMONOVICH

ALISHER NAVOIY LIRIKASINING SINTAKTIK-SEMANTIK VA KOMMUNIKATIV XUSUSIYATLARI

10.00.01 – O‘zbek tili

FILOLOGIYA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2023

УЎК: 811.512.133’36/’37: 821.512.133(092)Навоий А(043.3)

Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Contents of Dissertation Abstract of Doctor of Science (DSc) on Philological Sciences

Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc) по филологическим наукам

Rahmatov Mardon Mehmonovich
Alisher Navoiy lirikasining sintaktik-semantik va kommunikativ xususiyatlari.....3

Rakhmatov Mardon Mekhmonovich
Syntactic-semantic and communicative features of Alisher Navoi's lyrics.....33

Рахматов Мардон Мехмонович
Синтактико-семантические и коммуникативные особенности лирики Алишера Навои.....63

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
List of published works
Список опубликованных работ.....68

TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

RAHMATOV MARDON MEHMONOVICH

ALISHER NAVOIY LIRIKASINING SINTAKTIK-SEMANTIK VA KOMMUNIKATIV XUSUSIYATLARI

10.00.01 – O‘zbek tili

FILOLOGIYA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2023

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.DSc/Fil471 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.tsuull.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi: **Ashirboyev Samixon**
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: **Yuldashev Ma'rufjon Muhammadjonovich**
filologiya fanlari doktori, professor

O'razboyev Abdulla Durdiboyevich
filologiya fanlari doktori, professor

Umarova Nargizaxon Rustamovna
filologiya fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot: **Andijon davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi DSc/03/30/12.2019/Fil.19.01 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2023-yil 9-mart soat 9:00dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil:100100, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi. 103. Tel: (99871) 281-42-44; faks: (99871) 281-42-44; faks: (99871) 281-12-44. (www.navoi-uni.uz).

Dissertatsiya bilan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (343- raqam bilan ro'yxatga olingan) (Manzil: 100100, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi. 103. Tel: (99871) 281-42-44; faks: (99871) 281-42-44; faks: (99871) 281-12-44 (www.navoi-uni.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil "1" 03 kuni tarqatildi.

2023-yil "1" 03 dagi 1- raqamli reyestr bayonnomasi)

I.I.Adizova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, filol.f.d., professor

Q.U.Pardayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, filol.f.d., dotsent

I.M.Azimov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filol.f.n., dotsent

KIRISH (Doktorlik (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida bugunga qadar poetik sintaksisning nazariy masalalarini o‘rganish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi. Bu sohadagi tadqiqotlarda poetik asarning tarkibiy unsurlari, ularga xos intonatsion va ritmik tuzilishni tizimli tadqiq qilish yangi bosqichga ko‘tarildi. Natijada, til ilmida poetik nutqning sintaktik va semantik rolini, kommunikativ tabiatini o‘rganishga e’tibor kuchaydi. Mazkur muammolarning diaxron aspektda muayyan ijodkor, xususan, Navoiy asarlari misolida hal etilishi, eng avvalo, poetik sintaksisning asl milliy tabiatiga xos tarixiy xususiyatlarni aniqlash imkonini beradi. Shuningdek, poetik nutq mazmuni doirasida sintaktik birliklar tabiatini yoritish hamda asar matnida qo‘llangan kommunikativ vositalarning tadqiqi poetik sintaksis taraqqiyotida muhim ahamiyatga ega.

Dunyo tilshunosligida XXI asrdan boshlab til muammolari tadqiqiga tizimli yondashila boshlandi. Buning natijasida tarixiy va zamonaviy poetik matnlarni sintaktik-semantik, semantik-pragmatik, funksional-uslubiy, kommunikativ va boshqa aspektlarda tadqiq qilishga qiziqish kuchaydi. Bu kabi tadqiqotlarda asosiy e’tibor badiiy nutqni shakllantiruvchi sintaktik birliklar semantikasi va she’riyatda ifoda etilgan badiiy axborotning kommunikativ vositalariga xos xususiyatlarni aniqlash orqali poetik nutq qonuniyatlarini ochib berishga qaratildi. Badiiy axborot ifodasi sifatida mumtoz she’riy asarlarning tarkibiy unsurlari va semantikasi, she’r/bayt/misra tuzilishida sintaktik birliklar o‘rni, ularning sintaktik (ritmik-sintaktik), semantik (ritmik-semantik) va kommunikativ jihatlarini o‘rganish muammoning nazariy asoslarini belgilaydi.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda navoiyshunos olimlar tomonidan Alisher Navoiy lirik asarlarini turli aspektlarda o‘rganishga e’tibor qaratila boshlandi. Ammo bugunga qadar o‘zbek tilshunosligida poetik shakl va ma’no, badiiy nutq tuzilishi hamda semantikasi, poetik axborot va uning subyekti (nutq egasi)ga daxldorligi, she’riy jumla sintaksisi, semantikasi va poetikasi; sintaktik birliklar va frazeologizmlar inversiyasi masalalari deyarli o‘rganilmagan. Mazkur tadqiqot ishida tahlilga tortilgan she’riy nutq struktur elementlari nafaqat mumtoz she’riyat nahviga taalluqli, balki zamonaviy she’riy asarlarni tashkil qiluvchi til birliklariga ham daxldordir. Zero, “ulug‘ shoir o‘zining she’riy va nasriy asarlarida yuksak umuminsoniy g‘oyalarni, ona tilimizning beqiyos so‘z boyligi va cheksiz ifoda imkoniyatlarini butun jozibasi va latofati bilan namoyon etib, yer yuzidagi millionlab kitobxonlar qalbidan munosib va mustahkam o‘rin egalladi”[1]. Bugungi kunda shoir asarlarining “... o‘sib kelayotgan yosh avlodning intellektual salohiyatini oshirish, ular qalbida yuksak axloqiy fazilatlarni tarbiyalashdagi beqiyos ahamiyatini nazarda tutib, shuningdek, ulug‘ shoir va mutafakkirning

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi qarori // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 20.10.2020, 07/20/4865/1395-son.

adabiy-ilmiy merosini mamlakatimizda va xalqaro miqyosda yanada chuqur tadqiq qilish va keng targ‘ib etish”[2] zaruriyati har qachongidan ahamiyatli bo‘lib qolmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi PF-4797-son “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to‘g‘risida”gi PF-4797-sonli, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2019-yil 21-oktyabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5850-sonli hamda 2020-yil 20-oktabrdagi “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 6084-sonli farmonlari, 2017-yil 17-fevraldagi “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2789-sonli, 2020-yil 19-oktabrdagi “Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi PQ-4865-son qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 16-fevraldagi “O‘zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o‘rganish va targ‘ib qilishning dolzarb masalalari” mavzusidagi xalqaro konferensiyani o‘tkazish to‘g‘risida”gi 124-F-son farmoyishi hamda sohaga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi hamda uning dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar taraqqiyotining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi.

Dunyo tilshunosligida Alisher Navoiy asarlari kam o‘rganilgan bo‘lishiga qaramay, shoir asarlarining adabiyotshunoslik, manbashunoslik va matnshunoslikka doir jihatlari dunyoning qator yetakchi ilmiy markazlarida tadqiq etilgan. Jumladan, İstanbul Üniversitesi, Pamukkale Üniversitesi, Atatürk Üniversitesi, Necmettin Erbakan Üniversitesi, Cumhuriyet Üniversitesi, Sivaş Üniversitesi, Marmara Üniversitesi, Türk Dil Kurumu, Türk Kültürünü Araştırma Enstitüsü, Ege Üniversitesi “Türk Dünyası Araştırmaları” Enstitüsü (Turkiya); Bonn universiteti, Berlin erkin universiteti, Berlin davlat universiteti (Germaniya); Balx davlat universiteti, Foryob universiteti, Javzjon universiteti, Tahor universiteti (Afg‘oniston); Markaziy millatlar universiteti, Sinjon Universiteti, Sinjon pedagogika universiteti, G‘arbiy shimoliy universitet, Pekin universiteti, Tianjin pedagogika universiteti, Xibey Minzi universiteti, Junggo-uyg‘ur klassik adabiyoti va muqam tadqiqoti ilmiy jamiyati (Zhunggo Uygur klassik edebiyati ve muqam tetqiqati ilmi jemiyiti), Sinjing normal universiteti (Xitoy); Etosh Lorand universiteti, Budapesht universiteti, Etvos universiteti, Sharqshunoslik instituti,

[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi qarori // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 20.10.2020, 07/20/4865/1395-son.

(Vengriya); Armstron universiteti, Turk, usmonlik turk, Bolqon va Markaziy Osiyoni o‘rganish ilmiy tadqiqot instituti (Fransiya); Indiana universiteti, Kolumbiya universiteti, Michigan universiteti, Garvard universiteti (Amerika), Toronto universiteti (Kanada); Kembrij (Angliya); Kioto universiteti (Yaponiya); Tehron universiteti (Eron), Qrim muhandislik va pedagogika universiteti, Rossiya FA Sharqshunoslik instituti (Rossiya), Boku davlat universiteti, Azerbaycan milli elmler akademiyasi Nizami adına ədəbiyyat İnstitutu (Ozarbayjon); Tojikiston FA Rudakiy nomidagi til va adabiyot instituti (Tojikiston), shuningdek, O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti, O‘zbekiston Milliy universiteti, Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti, Samarqand davlat universiteti, O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi (O‘zbekiston)da olib borilmoqda.

Dunyo tilshunosligida Alisher Navoiyning ayrim lirik asarlari grammatik xususiyatlariga bag‘ishlangan tadqiqotlar olib borilgan va quyidagi natijalarga erishilgan: shoirning “G‘aroyib us-sig‘ar” devoni sharhlari; devon matnidagi predloglar (o‘zlashma bog‘lovchi-yuklamalar, ko‘makchilarning vazifasi, semantikasi, ularning sintaktik struktura bilan bog‘liq jihatlari, predloglar qo‘shma gapning tobe komponentini shakllantirishi masalalari sharhlash tamoyili asosida yoritilgan[3] (İstanbul Üniversitesi, Pamukkale Üniversitesi (Turkiya), shuningdek, Navoiy g‘azallari strukturasi va qofiya, qofiyada mantiq urg‘usi, sabab va oqibat munosabatlari, o‘zlashma so‘zlar, g‘azallarning leksik-semantik xususiyatlari, shuningdek, Alisher Navoiy asarlari lisoniy-konseptual tadqiq qilingan (O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti, Farg‘ona davlat universiteti, Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti (O‘zbekiston).

Jahon tilshunosligida lirik asarlarni yangicha yondashuvlar asosida tadqiq etish uchun quyidagi yo‘nalishda izlanishlar olib borilmoqda: lirik asar strukturasi va elementlari mazmuni, nutq strukturasi kategoriyalarining munosabati, poetik axborotni o‘rganish orqali til sohiblariga xos dunyoni anglash hamda tasavvur qilish, lirik asarda milliy-madaniy olamda turli darajada idrok etiladigan tushuncha va qadriyatlar ifodasi hamda idroki, shoirning poetik axborot yaratish va uni uzatish tamoyillari, poetik matn garmoniyasi va simmetriyasi qonuniyatlari tadqiqi kabi.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Navoiyshunoslik ilmida Alisher Navoiy asarlari lingvistik jihatdan bir qator olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Jumladan, O. Usmonov, A. Rustamov, E. Fozilov, M. Rahmatillayeva, X. Mamadov, X. Doniyorov, E. Umarov, B. Bafoyev, U. Sanaqulov, A. Karimov, E. Nosirov, Z. Hamidov, M. Yusupov, B. Yusupov, S. Ashirboyev, A. Nishonov, H.

---

[3] Ali Şir Nevayi’nin “Garaibü's-Sıgar” İsimli Eserinde Edatlar//http://nek.istanbul.edu.tr:4444/ekos/TEZ/57787.pdf; Muhterem Saygin. Ali Şîr Nevâyî’nin “Garâibü’s-Sıgar” Adlı Divanının Tahlili. Pamukkale Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü. Doktora Tezi. – Denizli, 2022. – 900 s.; Günay Kut. Alî Şîr Nevâyî’nin Birinci Divanı: “Garâibü’s-Sıgar”, İstanbul Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü Doktora Tezi. – İstanbul, 1965.; Hilal Kalkandelen. Ali Şîr Nevâî ve Farsça Divanının İçerik Açısından İncelenmesi, Atatürk Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü Doktora Tezi, Erzurum, 2004; Metin Karaörs. Ali Şir Nevâyî Nevâdirü’ş-şebâb (Metin-Dil İncelemesi), İstanbul Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü, İstanbul, 1985; Önal Kaya. Ali Şir Nevâyî Fevayidü’l-Kiber (İnceleme-Metin-Dizin), Ankara Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü Doktora Tezi, Ankara. 1989; Bilge Özkan Nalbant. Nevâdirü’n-Nihâye (İnceleme, Metin, Dizin), Ankara Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü Doktora Tezi, Ankara, 2005.

Dadaboyev, Q. Sodiqov, I. Azimov, F. Hayitmetov, B. Zaripov, N. Umarova, Sh. Egamova, D. Isaqova, O‘. Islamov, M. Tojiboyeva, M. Usmonova, D. Abdulxayrov, D. Abduvaliyeva, N. Abduvaliyeva, Sh. Xo‘janiyozovalar bevosita Alisher Navoiy asarlari tili tadqiqi bilan shug‘ullangan[4] bo‘lsa, G‘.Abdurahmonov, Sh. Shukurov, M.Qodirov[5] kabi olimlar o‘zlarining ilmiy ishlari doirasida bilvosita shoir asarlari tilini tadqiq etishgan. Shubhasiz, ularning tadqiqot ishlari o‘zbek navoiyshunosligi rivojiga munosib hissa bo‘lib qo‘shilgan.

Navoiy ijodining salmoqli qismini lirik asarlar tashkil qilsa-da, ularning til xususiyatlari bilan bog‘liq tadqiqot ishlari unchalik ko‘p emas. Jumladan,

---

[4] Усманов А. “Мухокамат ул лугатайн” Алишера Навоий. – Ташкент, 1948; Рустамов А. Некоторые грамматические особенности языка “Махбуб ул-кулуб” Алишера Навоий. Автореф. дисс. ... канд.фил.наук. – Ташкент, 1959; шу муаллиф. Фонетико-морфологические особенности языка Алишера Навои. Автореф. ...дисс. докт.фил.наук. – Ташкент, 1966; шу муаллиф. Навоийнинг бадиий маҳорати. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат, 1979; Фозилов Э. Ўзбек тилининг тарихий морфологияси. – Тошкент: Фан, 1965, шу муаллиф. Қадимги обидалар ва Алишер Навоий. – Тошкент: Фан, 1969; Умаров Э. Лексико-грамматическая характеристика фразеологизмов дивана “Хазойин ул маоний” Алишера Навои. Автореф. ...дисс. канд.фил.наук. – Л.: 1968; Ўша муаллиф. Ўзбек тилида тил олди товушлари борми? // Ўзбек тили ва адабиёти, 1994. № 4-5-6. – Б. 77-80; Яна ўша муаллиф. Алишер Навоий унли ва ундошлар ҳақида. // Ўзбек тили ва адабиёти, 1992. №1. – Б. 32-35; Рахматуллаева М. К вопросу изучения синонимов в лирике Алишера Навои. Автореф. ...дисс. канд.фил.наук. – Ташкент, 1965; Мамадов Х. Алишер Навоий бадиий прозасининг лексик-стилистик хусусиятлари: Филол.фан.номз.дисс.автореф. – Тошкент, 1969; Дониёров Х. Алишер Навоий ва ўзбек адабий тили. – Тошкент: номидаги адабиёт ва санъат, 1972; Бафоев Б. Сложные существительные в лирике Алишера Навои. Автореф. ...дисс. канд.фил.наук. – Ташкент: 1968; Шу муаллиф. Навоий асарлари лексикаси. – Тошкент: Фан, 1983; Санакулов У. Исследование памятника XV века “Мухокамат ул лугатайн” Алишера Навоий. Автореф. ...дисс. канд.фил.наук. – Ташкент, 1971; Каримов А. Лексико-семантические и стилистические особенности языка поэмы “Фархад и Ширин” Алишера Навои. Автореф. ...дисс. канд.фил.наук. – Ташкент, 1974; Насыров И.Лексика “Маджалис ан-нафаис” Алишера Навои. Автореф. ...дисс. канд.фил.наук. – Ташкент, 1980; Ҳамидов З. Лексико-семантические и лингвопоэтическоое исследование языка “Лисон ат-тайр” Алишера Навои. Автореф. ...дисс. канд.фил.наук. – Ташкент, 1982; Юсупов М. Алишер Навоий насрий асарларида изофали бирикмалар. Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1984; Юсуфов Б. Местоимение в староузбекском литературном языке (XV-XVI вв). Афтореф. ...дисс.канд.фил.наук. – Ташкент, 1988. – С. 24; Аширбоев С. Алишер Навоийнинг насрий асарларидаги содда гапларнинг маъно ва таркибий хусусиятлари: Филол. фанлари д-ри… дис. – Тошкент, 1990. Б. 330.; Нишонов А. Навоий тилидаги арабизмларнинг фонетик-морфологик ва лексик-семантик таҳлили (Фонетико-морфологический и лексико-семантический анализ арабизмов языка Навои): Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1990; Азимов И. Алишер Навоийнинг насрий асарларида кесим марказли бир бош бўлакли гапларнинг шаклий ва мазмуний хусусиятлари: Филол.фан. номз. ...дис. – Тошкент, 2000; Зарипов Б. Зоонимларнинг бадиий санъат турларини ҳосил қилишдаги иштироки (Алишер Навоий асарлари мисолида): Филол.фан. номз. ...дис. – Тошкент, 2002; Тожибоева М. Алишер Навоийнинг “Илк девон”идаги арабча сўзларнинг лексик-семантик талқини: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2009. -Б. 175; Дадабоев Х. Алишер Навоийнинг киноя шеърий санъатини қўллаш маҳорати. Алишер Навоий ва XXI аср. – Тошкент: 2021. – Б. 149-155; Содиқов Қ. “Муҳокамат ул луғатайн”ни ўқиб ўрганиш. Ўқув қўлланма. – Тошкент, 2011; Эгамова Ш. Алишер Навоий асарлари тилидаги қадимги туркий лексик қатлам. Филол.фан. номз. ...дисс. автореф. – Тошкент, 2008; Исақова З. Алишер Навоийнинг “Мажолис ун-нафоис” асаридаги ижтимоий-сиёсий лексика: Филол. фан. номз. …дисс. – Тошкент, 2010; Исламов Ў. Алишер Навоий асарларида нутқ маданияти талқини: Филол.фан. номз. ...дис. – Тошкент, 2011; Усмонова М. Алишер Навоий асарлари тилида ўсимлик номларининг лексик-семантик хусусиятлари: Филол. фан. номз. …дисс. – Тошкент, 2012. – Б.153; Абдулхайров Д. Алишер Навоий тарихий асарлари лексикаси. – Тошкент: Фан, 2016; Абдувалиева Д. Алишер Навоий тарихий асарлари лексикаси: Филол. фан. бўйича фалс.д-ри (PhD)....дисс. – Тошкент, 2017. Б. 48.; Xo‘janiyozova Sh. Alisher Navoiyning manoqib asarlari leksikasi. Filol.fan.bo‘yicha fals.d-ri (PhD) …diss. – Toshkent, 2022. – B. 54.

[5] Абдураҳмонов Ғ. Тарихий синтаксис. – Тошкент: Фан, 1974. – Б. 75; Абдураҳмонов Ғ., Рустамов А. Навоий тилининг грамматик хусусиятлари. – Тошкент: Фан, 1984. – Б.160; Шукуров Ш. Эски ўзбек тили унлилари. // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент: 1994. №4-5-6. – Б. 22-25; Ўша муаллиф. Шукуров Ш. Ўзбек тили тарихининг ўрганилиши// Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент: 1982, – № 5. – Б. 36-41.

E.Umarov[6], F. Hayitmetov[7], N. Umarova[8], M. Tojiboyeva[9] va N.Abduvaliyevalar[10] ijodkor g‘azallarining ayrim lingvistik xususiyatlarini o‘rganishgan bo‘lsa, A.Hayitmetov, Y. Isoqov, I. Haqqul, B. Sarimsoqov, D. Salohutdinova, M.Akbarova, G. Rahimova, S. Sotiboldiyeva, Z. G‘afforova, N. Bozorova, N.Bekova, K. Mullaxo‘jayeva, M. Rajabova, S. O‘tanova, H. Jo‘rayev, H.Eshonqulov, N. Jumaxo‘ja[11] va boshqa ko‘plab olimlar adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan tadqiq qilishgan.

Ma’lum bo‘ladiki, g‘azallar doirasida amalga oshirilgan lingvistik izlanishlarda asosan g‘azal matnining leksik-semantik xususiyatlari tadqiq etilgan. Mazkur dissertatsiya mavzusi esa navoiyshunoslikning til ilmida ilk bor o‘rganilmoqda.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi. Tadqiqot Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Tilning ijtimoiy, tarixiy va zamonaviy taraqqiyoti” mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Alisher Navoiyning “G‘aroyib us-sig‘ar” devonini tashkil qiluvchi g‘azallar struktur elementlarining nutq subyektiga munosabati, poetik aktuallashuv, sintaktik birliklar pozitsiyasi masalalarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

g‘azal matni semantikasi bilan bog‘liq holda ifoda etiladigan nutq aspektlari – nutq subyekti va adresat, subyekt va obyekt munosabatlarini asoslash;

---

[6] Умаров Э. Лексико-грамматическая характеристика фразеологизмов “Хазойин ул маоний” Алишера Навои. Автореф. ...дисс. канд.фил.наук. . – Ленинград, 1968. – С. 19.

[7] Ҳайитметов Ф. Алишер Навоий ғазаллари қофиясида мантиқ урғусининг берилиши: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1998. Б.125.

[8] 1.Умарова Н. Алишер Навоий ғазаллари мақтасида сабаб ва оқибат муносабатининг ифодаланиши: Филол. фан. номз. ...дисс. – Фарғона, 2005. 2. Умарова Н. Алишер Навоий асарларининг лисоний-концептуал тадқиқи: Филол. фан. д-ри (DSc)... дисс. – Фарғона, 2021. Б.112.

[9] Тожибоева М. Алишер Навоийнинг “Илк девон”идаги арабча сўзларнинг лексик-семантик талқини: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2009. Б. 175.

[10] Абдувалиева Н. Алишер Навоий ғазалларининг лексик-семантик хусусиятлари: Филол. фан. бўйича фалс.д-ри (PhD)....дисс. – Фарғона. 2022. Б. 146.

[11] Ҳайитметов А. Навоий лирикаси. – Тошкент: Фан, 1961. – Б. 295; Исҳоқов Ё. Навоий поэтикаси. – Тошкент: Фан, 1983. – Б. 167; Саримсоқов Б. Алишер Навоий поэтик синтаксисидаги бир усул ҳақида. // Ўзбек тили ва адабиёти. 2001, № 2. – Б. 10-14; Салоҳутдинова Д. “Бадоеъ ул-бидоя” девони ва бадиий санъаткорлик масалалари: НД. – Самарқанд, 1993; Жўраев Ҳ. Алишер Навоийнинг кексалик даври лирикаси: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1993; Акбарова М. Алишер Навоий ғазалларида қофия: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1997. Б. 142; Алишер Навоий шеъриятида шоир ҳасби ҳолининг бадиий талқини (“Хазойин ул-маоний” асосида): Филол. фан. номз. ... дисс. – Самақанд, 1999; Сотиболдиева С. Фоний ғазалларининг бадиияти: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2001; Ғаффорова З. Навоийнинг ҳамд ва наът ғазаллари. – Т.: Маънавият, 2001. – Б. 64; Бозорова Н. Алишер Навоий ғазалларида кўнгил образи: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2002. Б. 135; Бекова Н. Руҳ ул-қудс ва Навоийнинг ҳамд ғазаллари: Филол. фан. номз. дисс. – Тошкент, 2003; Муллахўжаева К. Алишер Навоий ғазалиётида тасаввуфий тимсол ва бадиий санъатлар уйғунлиги (“Бадоеъ ул-бидоя” девони асосида): Филол.ф.н…дисс. – Тошкент, 2005. – Б. 149; Ражабова М. Алишер Навоий “Назм ул-жавоҳир” асарининг манбалари ва бадиияти: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2006; Ўтанова С. Алишер Навоий ғазалиётида ранг символикаси: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2007. – Б. 138; Жўраев Ҳ. Алишер Навоий лирикасида воқелик ва унинг поэтик талқинлари (Ўзига хослик ва анъанавийлик асосида): Филол. фан.д-ри ...дисс. – Тошкент, 2008, Эшонқулов Ҳ. Алишер Навоий шеъриятида самовий тимсоллар (“Бадоеъ ул-бидоя”, “Наводир ун-ниҳоя” девонлари асосида): Филол. фан.номз ...дисс. – Самарқанд, 1999; Шу муаллиф: Алишер Навоий ғазалиётидаги ишқ поэтикасининг қиёсий-типологик таҳлили (“Хазойин ул-маоний” мисолида). Филол. фан.д-ри ...дисс. – Самарқанд, 2019; Жумахўжа Н. “Қаро кўзум”...ғазали тадқиқи. – Тошкент: Муҳаррир, 2021. Б.308.

g‘azallar matnida qo‘llangan sintaktik birliklarning sintaktik, semantik va kommunikativ xususiyatlarini ochib berish;

shoir g‘azallari matnidagi diskurslar – dialogik nutq va poetik nutqning o‘zaro munosabatlarini yoritish;

bayt/misra mazmunini shakllantiruvchi poetik axborotni uzatish va qabul qilishga xizmat qiluvchi sintaktik qurilmalarni belgilash va izohlash;

Navoiy g‘azallarida dialogizatsiya va adresatsiya, avtokommunikatsiya va avtoadresatsiya masalalarini tavsiflash;

g‘azallar matnida qo‘llangan murojaat birliklarining sintaktik va semantik struktura tarkibiy qismi sifatidagi ahamiyati, ularning gap tarkibidagi boshqa bo‘laklar bilan sintaktik-semantik munosabatini aniqlash;

g‘azallarda inversiya va tadminning uslubiy xususiyatlarini, shuningdek, bayt/misra strukturasidan o‘rin olgan erkin va turg‘un birikmalar tartibining o‘zgarishi bilan bog‘liq holatlarni tahlil qilish.

Tadqiqotning obyektini Hamid Sulaymon tomonidan Sankt-Peterburg (Saltikov-Shchedrin nomli Davlat xalq kutubxonasi, inv. Xanikov-55, 904–1498–1499-yy va inv. Dorn-558, 1001–1004–1592–1596-yy.), Toshkent (O‘zbekiston FA SHI, inv, № 677, XVI asr), Istanbul (To‘pqopi saroyi fondi, inv. № 808, 901-902-1495–1497-yy.), Parij (Parij Milliy kutubxonasi, inv. № 316-317, 930–933–1525–1527-yy.) qo‘lyozma nusxalari asosida tayyorlangan ilmiy-tanqidiy matn – Alisher Navoiyning “Xazoyin ul-maoniy” kulliyoti tarkibidagi “G‘aroyib us-sig‘ar” (1988) devoniga mansub g‘azallar tashkil etadi.

Tadqiqotning predmeti Alisher Navoiyning “Xazoyin ul-maoniy” kulliyotidagi “G‘aroyib us-sig‘ar” devoniga mansub g‘azallarning sintaktik-semantik hamda kommunikativ xususiyatlarni tahlil qilishni tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda analiz, sintez, tavsiflash, tasniflash, qiyosiy-tarixiy, sintaktik-semantik, komponent tahlil, uslubiy-vazifaviy tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

she’riy nutqda buyruq shakli, so‘roqlar, sen olmoshi, undalma kabi kommunikativ vositalarning dialogizatsiyani ta’minlashdagi buyruq: *angla, so‘rma, fahm et*; so‘roqlar: *qaysi? nechun?/nevchun?* singari ko‘plab namunalar asosida ochib berilgan;

g‘azallar matni nutqiy faoliyatni tashkil etuvchi nutq subyekti va adresat, subyekt va obyekt tamoyillari asosida tekshirilib, ular she’riy nutq strukturasining bosh kategoriyalari ekanligi dalillangan hamda nutq subyektining shoir taxallusiga munosabati izohlangan;

propozitiv qurilmalarning kommunikativlikka munosabati, she’riy jumla/misra qismlarining aktuallashuvi ilmiy asoslanib, ularning aktual sathda tema hamda rema guruhlariga ajratilishi asoslangan;

undalma va kirish so‘zlarning poetik nutqdagi o‘rni, tavtologik birliklarning kommunikativ sintaksisga munosabati, ularning ifoda tizimi, sintaktik-semantik hamda kommunikativ xususiyatlari aniqlangan;

inversiya va tadminning o‘zaro bog‘liqligi masalasiga oydinlik kiritildib, ular bayt/misra strukturasida joylashgan o‘rniga ko‘ra farqlanuvchi she’riy axborot uzatish tizimi ekanligi dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

g‘azallar she’riy nutq sifatida tahlil qilingan, unda qo‘llanilgan sintaktik birliklarning sintaktik-semantik va kommunikativ xususiyatlari tavsiflangan;

diskurs, dialogik nutq va poetik nutqning o‘zaro munosabatlari, bayt/misra strukturasining shakllanishi bilan bog‘liq masalalar aniqlangan;

dialogizatsiya va adresatsiya, avtokommunikatsiya va avtoadresatsiyaning g‘azallarda kommunikativlikni ta’minlovchi vosita ekanligi asoslangan;

g‘azallarda so‘z tartibi – inversiya va tadmin, erkin va turg‘un birikmalarning bayt/misra strukturasida joylashishi dalillangan,

frazeologizmlarning she’riy nutqda “sinishi” – she’riy misrada erkin qo‘llanishi isbotlangan;

she’riy jumla/misralar aktual bo‘laklari adabiy tilning uslubiy-neytral jumlalaridan farq qilishi izohlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tanlangan misollar tahliliga diaxron asosda yondashilganligi, foydalanilgan lingvistik metodlarning tadqiqot maqsadiga mosligi, nazariy ma’lumotlarning ilmiy manbalarga izchil asoslanganligi, foydalanilgan badiiy manbalarning tadqiqot predmetiga muvofiqligi, erishilgan ilmiy natijalarning amaliyotga tatbiq etilganligi, nazariy fikrlar va ularga munosabat bildirilishi, olingan natijalarning har biri daliliy materiallar vositasida asoslangani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati dissertatsiya natijalari g‘azallarning sintaktik-semantik, kommunikativ xususiyatlari doirasida tilning diaxron aspektda o‘rganilganligi, she’riyatda jumla muammosi, she’riy dialogizatsiya, adresatsiyani yuzaga chiqaruvchi grammatik shakllar, shoir nutqining o‘ziga xos jihatlari, faol nutqiy birliklarning semantik va kommunikativ xususiyatlari, inversiya va uning g‘azallarda yuzaga kelishi bilan bog‘liq nazariy qarashlar navoiyshunoslik ilmining rivojiga muayyan darajada hissa qo‘shishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati mumtoz va zamonaviy she’riy matnlarning til xususiyatlarini tahlil qilishda, jumladan, Alisher Navoiy va boshqa mumtoz ijodkorlar lirik asarlarini to‘g‘ri tushunish va talqin qilishga yordam beradi (poetik matn tahlili va talqinini o‘z ichiga olgan poetik matnni uslubiy neytral adabiy tilga o‘girishni bir bosqich sifatida qamrab oladi), tarjimashunoslikda hamda hozirgi o‘zbek she’riyati takomilida mumtoz she’riyat o‘rni masalasining hal qilinishi kabi ilmiy natijalardan oliy ta’lim muassasalarining o‘zbek tili tarixi, o‘zbek adabiy tili tarixi, o‘zbek tilining tarixiy grammatikasi, badiiy uslub takomili, badiiy matnning lingvistik tahlili, nazariy tilshunoslik, psixolingvistika, lingvokulturologiya, sotsiolingvistika fanlari bo‘yicha ma’ruza va seminarlar, maxsus kurslarni ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Alisher Navoiy lirikasining sintaktik-semantik va kommunikativ xususiyatlari tadqiqi bo‘yicha olingan natijalar asosida:

g‘azallar matni nutqiy faoliyatni tashkil etuvchi nutq subyekti va adresat, subyekt va obyekt tamoyillari asosida o‘rganilgan hamda nutq subyektining shoir taxallusiga munosabati izohlangan o‘rinlari, undalma va kirish so‘zlarning poetik nutqdagi vazifasi, tavtologik birliklarning kommunikativ sintaksisga munosabati, ularning ifoda tizimiga doir ilmiy-nazariy xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida bajarilgan PZ-20170926459-raqamli “Navoiyshunoslik tarixi (XX–XXI asrlar)” (2018–2020-yy.) mavzusidagi amaliy loyihaning nazariy qismida foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2022-yiil 26-oktabrdagi 01/4-2978-son ma’lumotnomasi). Natijada tayyorlangan monografiya mazmunan yangi tahliliy ma’lumotlar bilan boyigan;

she’riy nutq, nutq subyekti va adresat, subyekt va obyekt, nutq subyektining shoir taxallusiga munosabati, propozitiv qurilmalarning kommunikativlikka munosabati, inversiya va tadmin, ularning o‘zaro bog‘liqligi, she’riy axborot uzatish tizimini shakllantirishdagi o‘rni va ahamiyati masalasiga doir ilmiy xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida bajarilgan OT-F1-030-raqamli “O‘zbek adabiyoti tarixi” ko‘p jildli monografiyani (7-jild) chop etish” (2017–2020-yy.) mavzusidagi fundamental loyihaning nazariy qismida foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2022-yil 26-oktabrdagi 01/4-2976-son ma’lumotnomasi). Natijada shoirning individual uslubi, lirik asarning “badiiy maydon” va “badiiy vaqt”i va poetik mahoratini belgilovchi sintaktik birliklar monografiyaning mazmuniga singdirilgan hamda Navoiy tiliga xos xususiyatlar ochib berilgan;

she’riy nutqda buyruq shakli, so‘roqlar, sen olmoshi, undalma kabi kommunikativ vositalarning dialogizatsiyani ta’minlashdagi ahamiyati, propozitiv qurilmalarning kommunikativlikka munosabati, she’riy jumla/misra qismlarining aktuallashuvi, ularning aktual sathda tema hamda rema guruhlarga ajratilishi asoslangan o‘rinlri she’riy jumla muammosi, undalma va kirish so‘zlarning poetik nutqdagi o‘rni masalalariga bag‘ishlangan tahliliy materiallardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida bajarilgan AM-FZ-201908172-raqamli “O‘zbek tilining ta’limiy korpusini yaratish” (2020–2022-yy.) mavzusidagi innovatsion loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2022-yil 26-oktabrdagi 01/4-2977-son ma’lumotnomasi). Natijada o‘zbek tili ta’limiy korpusining she’riy matn va uning funksional-uslubiy, funksional-kommunikativ tahlil usullari jihatidan mukammalashishiga erishilgan;

she’riy nutqda buyruq shakli, so‘roqlar, sen olmoshi, undalma kabi kommunikativ vositalarning dialogizatsiyani ta’minlashiga doir namunalar tahlili, nutq subyekti va adresat, nutq subyektining shoir taxallusiga munosabati bilan bog‘liq ilmiy materiallardan O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining “O‘zbekiston” teleradiokanalida 2021–2022-yillarda efirga uzatilgan “G‘azal bo‘stoni”, “Adabiy jarayon” nomli dasturlar ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining 2022-yil 10-oktabrdagi 04-36-1697-son ma’lumotnomasi). Natijada O‘zMTRKda yangi radioeshittirishlarni tashkil qilish va mavjud radioeshittirishlarning mazmunini boyitishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro va 7 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 28 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 12 ta, xorijiy jurnallarda 3 ta maqola chop etilgan.

Tadqiqotning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to‘rt bob, xulosa hamda foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, 246 sahifani tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti, predmeti, ilmiy yangiligi va amaliy qiymati yoritilgan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqotning joriylanishi, natijalarning e’lon qilinganligi hamda dissertatsiya tuzilishi haqida ma’lumot berilgan.

Dissertatsiyaning **“Alisher Navoiy lirikasida nutqiy subyekt va adresat”** deb nomlangan dastlabki bobi olti faslni o‘z ichiga oladi. Birinchi fasl *“Poetik nutq, intonatsiya”* deb nomlanadi. Bu faslda she’riy axborot, uning tuzilishi, tashkil qilinishi bilan bog‘liq masalalar tahlili berilgan. Tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra, poetik (she’riy) nutqning intonatsion tuzilishi u yaratilishidayoq muallifga ma’lum bo‘ladi. Shoir lirik intonatsiyani, avvalo, o‘zida his qiladi. A.Leontyevning ta’kidlashicha, muallif poetik nutqni yaratishda jumlani, umuman, butun matnni motorli dasturlashning maxsus qonuniyatiga muvofiq amalga oshiradi. She’riy matn yaratishda ritm, sintagmalar urg‘usi va ohangini tashkil etish muhimdir, buning uchun ma’lum bir nutq tovushlarini maxsus tanlash lozim bo‘ladi, masalan, qofiyani ta’minlovchi unli va undoshlar kabi[12].

Muayyan o‘lchov (izometriya)ga asoslangan qat’iy ritmik-intonatsion tizim she’riy misra tarkibidagi jumlaning sintaktik qurilishini o‘ziga shu qadar moslashtiradiki, natijada, ularning odatdagi joylashuvida o‘zgarish yuz berishi, she’riy jumla tarkibidagi ayrim gap bo‘laklarining grammatik shakllanishida, jumlalarning sintaktik tuzilishida turli darajada o‘zgarishlar yuzaga keladi. She’riy matnda yuzaga kelgan bu kabi o‘zgarishlar – g‘ayritabiiy (spontan) murakkab qurilmalar uslubiy g‘aliz jumlalar sanalmaydi. Alisher Navoiyning “G‘aroyib us-sig‘ar” devonidan keltirilgan quyidagi baytda *ul* ko‘rsatish olmoshi, *-ning* qaratqich kelishigi (*xo‘blarning*) hamda *xoli* va *holi* so‘zlaridagi egalik qo‘shimchalari bilan bog‘liq bir mulohaza:

Barča *xoblarnïŋ* qad-u ruxsār-u *xatt-u xālï* bar,
Lek *ulkim* bizni behāl äjlär özgä *hālï* bar (G‘S, 176).

Fikrimizcha, shoirning baytning intonatsion tizimi talabiga ko‘ra shakllangan *ulkim* ifodasining sintaktik pozitsiyasiga ko‘ra kesim ergash gapli qo‘shma gap: *ulki, ...holi bor;* hamda *holi* so‘zining sintaktik pozitsiyasiga ko‘ra *aning ...holi bor//yorning ...holi bor* tarzida tushunish/tahlil qilishga xalaqit bermaydi. Shoirning

[12] Леонтьев А. Основы психолингвистики: Учебник для студ.высш.учеб.заведений. – 4-е изд. – М.: Смысл; Издательский центр “Академия”, 1999. – С. 288.

maqsadi *ul* ko‘rsatish olmoshiga ta’kid ma’nosini yuklash ekan, o‘quvchi uchun uning birinchi talqini asosli bo‘ladi. Bayt/misra strukturasiga kiritilgan bunday qurilmalar turli darajada deformatsiyaga uchragan, ritmik-sintaktik, ritmik-semantik jihatdan tashkil etilgan jumlalardir.

“G‘azallarda ritm va fonika” deb nomlangan ikkinchi faslda g‘azallarda ritmik-intonatsion, ritmik-sintaktik tuzilishning mavjudligi va ularning umumiy qofiya asosiga birlashtirilganligi uning simmetrikligi, ohangdorligi, musiqiyligini ta’minlaydi hamda fonikani yuzaga chiqaradi. Ayniqsa, ritm, qofiya (qo‘sh qofiya), alliteratsiya, unli va undosh tovushlarning ketma-ketligi she’riy fonika uchun ahamiyatlidir. Quyidagi baytda “o” unlisi badiiy nutq materiali sifatida qo‘llangan:

Közüŋ ne bal**ā** qar**ā** boluptur
Kim, ǯ**ā**nγa qar**ā** bal**ā** boluptur (G‘S, 161).

Fonika (yoki poetik fonetika) she’riy asarlarda nutq tovushlaridan estetik maqsadda foydalanishdir.

Radiflar intonatsion tizimda o‘z o‘rniga ega bo‘lgan she’riy unsur sanaladi. Shuning uchun klassik poetikaga doir risolalarda radifga maxsus to‘xtalishgan va bayt misralari oxirida takrorlanuvchi bir yoki bir necha so‘zdan iborat bo‘lgan, ohangdoshlikni ta’minlab beruvchi asosiy she’riy unsurdir. Radifning o‘z o‘rnida, she’r mohiyatiga mos tanlanishi ijodkor mahoratidan darak beradi[13]. Shu jihatdan radiflar ham fonik qiymatga ega birlik sifatida qofiyadosh so‘zlardan keyin kelib, butun g‘azal strukturasiga xos intonatsion uyg‘unlikni ta’minlashda ishtirok etadi. Quyidagi baytda takrorlar: takrir, qofiya, radif va *r* tovushi kabi fonik vositalar intonatsion uyg‘unlikni ta’minlashga xizmat qiladi:

*Hä**r*** qajan baqs*am* közümgä ul qujašdïn *nu**r** erü**r**,*
*Hä**r** sa**r**ï* qïls*am* naza**r**, ul aj maŋa *manzu**r** erü**r*** (G‘S, 186).

Shuningdek, she’riy qismlarning simmetrik joylashuviga xizmat qiluvchi “maxsus” so‘zlar guruhi ham mavjud bo‘lib, ular ma’noda farqlanmaydigan, ammo hijoning qisqa va cho‘ziqligiga ko‘ra farqlanadigan va she’riy misraning istalgan o‘rinlarida qo‘llana oladigan *-ki/-kim, čün/čü, agar/gar/ar, agarči/garči, magar/ magarki/ magarkim, kāš/ kāški* yuklamalari, *bilän/bilä/ilä* ko‘makchilari, *ej* va forsiy *ā* undov shakli (*Ej Navāij/Navāi jā, ej sāqij/sāqi jā, ej dilbar/dilbar ā*)ning o‘rni katta.

“Dialogizatsiya kommunikativlik birlik sifatida” deb nomlangan faslda shoirning lirik asarlarida adresat bilan mustahkam aloqa o‘rnatish – dialogizatsiyani ta’minlash uchun qo‘llangan til elementlari tahlil qilinadi. She’riy asarda o‘zida og‘zaki dialogik nutqqa xos xususiyatlarni saqlovchi *undalmalar, olmoshlar, fe’lning ikkinchi shaxsi, so‘roqlar, buyruq konstruksiyalar* dialogizatsiya elementlari (kommunikatsiya vositalari) sanaladi[14]. Shuningdek, ilmiy adabiyotlarda nutqni adresatga yo‘llash, adresatning nutq akti jarayonida qatnashishi yoki uni biror bir faoliyatga undashni nazarda tutuvchi til elementlari *adresatsiya*dir.

Lirik asarlardagi ***so‘roqlar*** (so‘roq mazmunli jumlalar) asosan ritorik so‘roqlardir. Ular mazmunan so‘roqdan ko‘ra ko‘proq she’riy axborot uzatishga

---

[13] Ҳамроева О. Темурийлар давридаги поэтикага доир рисолаларда қофия илмининг қиёсий таҳлили. – Тошкент: Bookmany print, 2022. – Б. 89.
[14] Ковтунова И. Поэтический синтаксис. – М.: Наука, 1986. – С. 61.

xizmat qiladi va ular she'riy ekspressiya uchun ahamiyatli sanaladi. Lirik qahramon va uning suhbatdoshi orasidagi dialoglarda og'zaki dialogik nutqning asl tabiati, jozibasi, jarangi sezilib turadi:

Dedim: käminä itiŋ-men, külüb maŋa ajtur:
Navāij, ne balā xudnamā emištuk-sen? (G'S, 482)

Muallif g'azallar matnida kuchli ritorikani hosil qilish uchun *-mi* so'roq yuklamasidan, forscha *ājā* yuklamasidan unumli foydalangan va bunda lirik qahramon – ma'shuqaning ma'lum xatti-harakatlarni amalga oshirishi yoki undan ta'sirlanishini nazarda tutadi:

Maj birlä jüzüŋ tim-tim ahmar-mu ekin *ājā*,
Jā šu'la ara bir-bir ahgar-mu ekin *ājā*? (G'S, 36)

O'zbek tilida fe'lning *buyruq mayli shakli* o'zida dialogizatsiyaga xos belgi-alomatlarni boshqa tur grammatik shakllarga qaraganda ko'proq aks ettiradi. Mazkur shakl adresatdan bir ish-harakatni sodir qilish, uni biron bir faoliyatga undash yoki voqea-hodisa, jarayonda ishtirok qilishga chaqirishni nazarda tutadi. Bunday jumlalarning predikati mazmunida adresat shunchaki guvoh emas, balki ish-harakatni sodir qiluvchi shaxs sifatida ko'riladi, dialogizatsiya elementi sifatida poetik asarlarning mazmun-mohiyatini to'g'ri tushunishga katta yordam beradi:

Xasta ʒānïm za'fin aŋla, köŋlüm afγānïn körüb,
Sorma köŋlüm jarasïn, fahm et közüm qanïn körüb (G'S, 57).

Baytda *angla, so'rma, fahm et* predikatlari mazmunida buyruq, amr ma'nosi mavjud bo'lib, og'zaki nutqda kutiladigan holatlarni sodir etish, ya'ni adresatni amaliy faoliyatga undash bilan bir qatorda, unda emotsional-ekspressivlik ham ta'minlangan.

Undalmalar o'zining tabiiy nutqiy xarakteriga muvofiq real suhbatdoshni talab qiluvchi kategoriyalardan biri sanaladi. Ammo she'riyatdagi undalmalarga real shaxs yoki narsa emas, balki poetik nomlar sifatida qarash to'g'ri bo'ladi. Undalmalar poetik nutq sharoiti va vaqtiga qarab yangi kommunikativ vaziyatga moslashadi, ya'ni ular she'riy nutqda o'zining dastlabki ma'nosini hamda vazifasini bir oz o'zgartiradi. Shoir tomonidan she'riy asarga kiritilgan undalmalar: shaxs, tabiat va jamiyatdagi hodisalar, obyektlar va boshqalar, aslida makon va zamonda qancha uzoq bo'lmasin, suhbatdoshida nisbatan shuncha yaqin masofada joylashganday, tasvirlanayotgan voqea (obyekt)da bevosita ishtirok etayotganday tasavvur uyg'otadi. Bunday undalmalar *ritorik murojaat*lardir[15]. Masalan, *ej köŋül, ej köz, ej aql, ej taš ...; ej gardun, ej quyaš, ej aj, ej sipehr, ej čarx, ej falak ...; ej šah, ej zāhid, ej šayx, ej hakim, ej bāγbān, ej sāqiy, ej muγanniy, ej rāviy, ej sālik, ej mayfuruš, ej qātil, ej munaʒʒim ...; Isā, Xizr, Masih, Maʒnun, Navāiy* va b.larga qaratilgan murojaatlar ham ritorik murojaatlardir:

Ej Navāij, ka'ba-ji maqsud vaslïn istäsäŋ,
Šāh-i Ʋāzij qasrïnïŋ dargāhi ālijšānïn öp (G'S, 67).

Ma'lumki, murojaat so'zlarining nutq uslublarida qo'llanishi turlicha. U og'zaki nutqda tabiiy holda, badiiy nutqda og'zaki nutqqa taqlidan qo'llanadi. Agar murojaat shakllari og'zaki nutqda kommunikativ vaziyatga qarab nutq

[15] Қуронов Д. ва б. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Akademnashr, 2010. – Б. 254.

yo‘llanayotgan shaxs yoki predmetlarni nomlash, ularning diqqatini tortish kabi vazifalarni bajarsa, poetik nutqda bu jarayon bir oz boshqacha tarzda kechadi. Ya’ni shoir dastlab nutq yo‘llanayotgan adresatlarni (shaxs yoki predmetlarni) jonlantiradi yoki jonli deb tasavvur qiladi, nomlaydi, keyin murojaat qiladi. Ba’zi tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra, avval shoir o‘zining tuyg‘usi bilan bog‘liqlikni, o‘xshashlikni biror bir predmetda/shaxsda ko‘radi, uni ayni shu xususiyatlariga ko‘ra nomlaydi va uni murojaat obyektiga aylantiradi. Murojaat shakllarining adresat uchun muhim tomoni undagi poetik axborot va uning qaysi til elementi bilan rasmiylashtirilganligi. Navoiy lirikasida qo‘llanilgan murojaatlar an’anaviy obrazlardan – shaxs va narsa otlaridan iborat:

Ej sabā, šarh äjlä avval dilsitānïmdïn xabar,
Soŋra degil köŋül atlïγ nātavānïmdïn xabar (G‘S, 179).

Shoir lirik asarlaridagi *ey* murojaat shakli adresatning jismoniy faollashuvini, diqqatni jalb qilishini nazarda tutmaydi. Shoir *ey* murojaat so‘ziga badiiy obraz va tasvir yaratish vositasi sifatida yondashadi. Lirik qahramonning nutqi ikkinchi shaxsga qaratiladi:

Išq ara, ejkim, dediŋ, har lahza farjād etmä, vāj,
Ut tütäškän čaγ bolur-mu kimsä farjād etmäsä?! (G‘S, 568)

Ya’ni: “Ey” bu – “sen”, ya’ni adresat. “Sen”ning poetik ma’nosi keng: *yor<pir* yoki *pir<yor* kabi. Bunday o‘rinlarda badiiy tasvir-tavsif yetakchilik qiladi, ya’ni “ey” – bu tavsiflanayotgan obrazga murojaatdir.

Ikkinchi shaxs kishilik olmoshi mazmunida dialogizatsiya ancha kuchsiz. Ammo II shaxs *sen* olmoshi o‘z ma’nosiga ko‘ra adresatga – tinglovchiga, keng ma’noda so‘zlovchi murojaat etayotgan shaxslarga, shuningdek, uning mazmuni yanada kengayib ehtimoliy adresatlar, keng kitobxonlar ommasiga ishora qilish vazifasini bajaradi.

Agar jumla tarkibida *sen* olmoshi hamda ikkinchi shaxs buyruq shakllari birgalikda kelsa, dialogizatsiyaga xos belgilar ko‘zga tashlanadi. Bu, ayniqsa, matla baytlarda yorqin namoyon bo‘ladi:

Sen öz xulquŋnï *tüzgil, bolma* el axlāqïdïn xursand,
Kišigä čün kiši farzandi hargiz bolmadï farzand (G‘S, 115).

Sen – deyktik birlik sifatida aniq yoki noaniq suhbatdosh, shaxs yoki shaxslar, jonsiz narsa yoki mavhum tushunchalarga murojaat qilish imkonini beradi. She’riy matnda *sen* – universal: u – shoir, shoirning ko‘ngli (*qurbān köŋül, xasta köŋül*):

Kel-kel, ej qurbān köŋül, ul qašï jā mehrin unut,
Čün vafādïn tartïlur-sen ham barïb bir göšä tut (G‘S, 71).

Sen olmoshining mazmunida dialogizatsiya kuchsiz bo‘lsa ham, informativligi juda yuqori, chunki u asosan tasvir obyekti semantikasi bilan zich bog‘lanadi. Ikkinchi shaxs – tasvir obyektining turli xususiyatlariga ko‘ra tavsif qilinadi: *sen – mehr, sen – xāvand* (G‘S, 114)*; sen – āludadomansen* (G‘S, 202)*; sen – majparast;sen – devonasen* kabi:

Subh erür sāqij-u men maxmur-men, *sen majparast*,
Mana qujaš-dek ʒāmnï, moni’ nedur bolmaqqa mast (G‘S, 77).
Ej Navāij, *sen daγï devāna-sen*, köŋlüŋ *daγï*,
Gar seni zabt etsälärkim äjläj alγaj anï zabt (G‘S, 282).

Shuningdek, quyidagi holatlarda dialogizatsiya kuchsizlanadi yoki kuzatilmaydi. Jumla mazmuni real voqelikka emas, balki hali amalga oshmagan, ammo oshirilishi nazarda tutilgan, ya'ni jumla irreal mazmunga ega bo'lsa, dialogizatsiya deyarli kuzatilmaydi, chunki bunday jumlalarning predikati mazmunida undash yo'q. Ammo ularning informativligi, poetik axborot kuchi saqlanadi.

Og'zaki nutqning I shaxs *-aj/äj//j* hamda uning ko'plikdagi *-ajlïq/äjlik* istak mayli shakllari ham aslida hali amalga oshmagan irreal mazmunga ega. "G'aroyib us-sig'ar" devonida ko'proq I shaxs *-aj/äj//j* (uning ko'plikdagi *-ajlik* shakli uchramadi) istak mayli shakli qo'llangan. Bunda I shaxsdagi lirik "men" his-tuyg'ulari kuchli ifodalangan bo'lib, bayon qilinayotgan voqea-hodisalarni o'z boshidan kechirayotgan va uni chuqur his qilayotgan lirik subyektdir.

Sāqij ā, tut bādakim, bir lahza özümdin *baraj,*
Šart bukim, har nečä tutsaŋ labālab *sïpqaraj* (G'S, 588).

Mazkur fe'l shakli, shuningdek, uchinchi shaxs *-sun//-sün* tarixan istak, tilak, duo ma'nolarini ham ifodalagan[16]:

Ɣam elidin, jā rab, ul gülgä ɣubāre *bolmasun,*
Bälki ānsïz dahr bāɣïda bahāre *bolmasun* (G'S, 477).

Tadqiqotning ***"Alisher Navoiy lirikasida nutq subyekti masalasi"*** deb nomlangan faslida nutq akti ishtirokchilari *adresant – nutq – adresat* kategoriyalarining bosh a'zosi adresant – nutq egasi o'rganildi. Ishda nutq subyekti ikkiga turga ajratildi: 1. Nutq subyekti – muallif, nutq egasi tashqi adresant. 2. Nutq subyekti – she'riy matnning ortida turadigan, uning ichki struktura elementlari orqali idrok qilinadigan lirik qahramon/subyekt ichki adresant. G'azallarda lirik qahramon ko'pincha o'zini "men" deb nomlaydi va matndagi boshqa lirik "men" (ba'zan, "sen" yoki "siz")ga murojaat qiladi, ular bilan o'rin almashadi[17]. Buni so'zlash navbatini "boshqalar" (II yoki III shaxs)ga berish, ya'ni badiiy shaxsdan shaxsga ko'chish deb ham bilishadi[18]. Navoiy g'azallarida ham bevosita nutq subyektiga ishora qiluvchi til belgilari qo'llaniladi. Ulardan eng faoli grammatik *men* kishilik olmoshi va shunga muvofiq holda qo'llangan kesimlik shakllari – fe'lning birinchi shaxs (birlik) shaklidir.

Alisher Navoiy g'azallarida "men" – bu keng mushohada qiladigan, hayot haqiqatlarini chuqur o'ylaydigan, falsafiy mushohada qiladigan, doim borliqning ma'nosi va haqiqatlarini izlaydigan shaxs, u – aynan shoirning o'zi. Lirik bayonda "men" markerlangan bo'lsa yoki u his qilinsa, she'riy ifoda avtopsixologik xarakter kasb etadi va shoir o'ziga o'zi subyekt maqomida bo'ladi:

Men ʒahāndïn kečtim-u, kečmäs meniŋ ʒānïmdïn el,
Men ilik ʒāndïn jüdüm, čekmäs ilik qanïmdïn el (G'S, 370).

Nutq subyekti grammatik I shaxs kishilik olmoshi *men* bilan ifodalanganda nutq subyektining ichki kechinmalari, ruhiy holati va kayfiyati bilan bog'liq ma'nolarni ifodalashga xizmat qiladi.

---

[16] Содиқов Қ. Эски ўзбек ёзма адабий тили. – Тошкент: Akademnashr, 2020. – Б. 373.
[17] Солганик Г.Я. О структуре речи (категории производителя и субъекта речи) // Экология языка и коммуникативная практика, 2014. – № 1. – С. 57-66.
[18] Атауллоҳ Ҳусайний. Бадойиъ-ус санойиъ. – Тошкент: Фан, 1979. – Б. 182-185.

Lirik qahramon *biz* deb so‘zlaganida nutq subyekti va nutq orasidagi bog‘liqlik sezilarli darajada susayadi, shu bilan birga “biz”ga yuzlanib o‘zi haqida fikr yuritishga yoki fikr yo‘nalishini o‘zi tomonga o‘zgartirishga erishadi:

Sāqij ā, tutqïl sabuhij bādakim, bu dajrdïn,
Biz ketib bu nav’ tāle’ bolγusï bisjār subh (G‘S, 104).

Lirik asarlarda *biz* so‘zlovchining ko‘pligini emas, balki o‘zi ishtirok qilayotgan bir guruh shaxslarni ham ko‘rsatadi: a) *biz* – inklyuziv *men+sen//sen+men, men+sizlar*; b) *biz* – eksklyuziv *men+ul//men+ular*[19].

Ma’lumki, jonli so‘zlashuvda, publitsistik janrdagi asarlar tilida, shuningdek, tantanali nutqlarda ko‘pincha *biz* olmoshi birlik ma’nosida qo‘llanilib, ba’zan kamtarinlikni, ba’zan manmanlikni ifodalaydi. Bu xususiyat g‘azallarda ham ko‘zga tashlanadi. Jumladan, baytda nutq subyekti – *biz* olmoshida ta’kid ma’nosi ifoda topadi:

Barγalï ul husn ganǯ-i γam buzuγ köŋlümdädür,
Aǯdahā üji *biziŋ* vajrāna boldï āqibat (G‘S, 72).

Istak mayli nutq egasining istagi, xohishidan tashqari uning shaxsini ham ko‘rsatishi mumkin. Bu ko‘proq I shaxs -(*a/ä//j* shakliga xos bo‘lib, u lirik asarning markaziy qahramoni va nutq subyektini ifodalash xizmat qiladi:

Išqïŋ ičrä köksümä anča ǯunun tašïn *uraj*
Kim, xiradnïŋ šavkatïn, taqvā šukuhïn *sïnduraj* (G‘S, 617).

G‘azallar matnida nutqiy subyekt ma’nosi kelasi zamon I shaxs istak maylining *-gäy/-ğay//-käy/-qay* shakllari yordamida ham hosil qilinadi. Binobarin:

Sinsä köŋlümdä oquŋ surtub ïsïγ qandïn aŋa,
Paj mäsallik *čïrmaγaj-men* rišta-ji ǯāndïn aŋa (G‘S, 10).

G‘azal matnida grammatik jihatdan ikkinchi hamda uchinchi shaxslarda shakllangan jumlalar va nutq subyekti (lirik qahramon) munosabatlari o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘ladi. Mazkur jumlalarda matn markazida turuvchi lirik qahramon II va III shaxsdan so‘zlaydi, bu esa shoirning o‘zga shaxslarga, tabiatga, tabiat hodisalari va tabiat tasvirlariga, ba’zan she’riy asar mazmuni bilan bog‘liq turli holat va hodisalarga qarata murojaat qilishiga keng yo‘l ochib beradi. Shoir shu tarzda o‘zini nutqidan “begonalashtiradi” va faollik lirik qahramonga ko‘chadi. Bu nutq turida lirik qahramon so‘zlovchi-kuzatuvchi, baho beruvchi mavqeyini egallaydi va voqea-hodisalarni bayon qilish, ta’kidlash vazifasini bajaradi.

Sen kishilik olmoshi ishtirokidagi she’riy matnning kommunikativ tabiati lirik subyektning biron bir shaxs, narsa yoki hodisaga “sen” deb murojaat qilishiga keng imkon berishida ham ko‘rinadi, hatto shoirning o‘ziga ham[20]. Alisher Navoiy asarlarida *sen* olmoshi lisoniy birlik sifatida bir vaqtning o‘zida – jumla subyekti, ya’ni *sen* – ikkinchi shaxs tinglovchi, nutq jarayoni ishtirokchisi, tinglovchi-subyekt, ayni paytda, *sen* – kontekstda o‘ziga murojaat qilayotgan, o‘zining holatini ikkinchi shaxsda bayon qilayotgan shaxs:

Ej, (sen) nubuvvat hajlïγa xātam bänij Ādam ara,
Gär alar hātam, sen ul ötkim, erür hātam ara (G‘S, 6).

---

[19] Юсуфов Б. Местоимение в староузбекском литературном языке (XV-XVI вв). Афтореф. дисс. ... канд. фил. наук. – Ташкент, 1988. – С. 6.
[20] Юсуфов Б. Ўша жойда.

“Sen” – kommunikativ vaziyat bilan bog‘liq holda nutq subyekti hamda tinglovchi orasidagi yaqinlik, hurmat ma’nosini ham ifodalaydi[21].

II shaxs xabar maylidagi fe’llarda lirik qahramon ko‘proq qalamga olingan ishtirokchilarning xatti-harakatlari haqida so‘zlaydi, ularning kechinmalarini bayon qiladi, boshqa “men”ning harakatlarini baholaydi, ularning xatti-harakatlaridan xabar beradi yoki ularni qayd etadi. Bu ko‘proq implitsit *sen* va uning ma’nosini reallashtiruvchi har uchala zamonda II shaxsda tuslangan fe’llarda kuzatiladi. Masalan:

Malāhat birlä *tüzdüŋ* sarvqadlar qāmatïn, ja’ni
Ki, mundaq zeb birlä ul alifni *äjlädiŋ* zebā (G‘S, 2).

Sen olmoshi nutq subyektining o‘ziga “chetdan” nigoh solish va o‘zini “sen” deb atash imkonini ham beradi. Bunday baytlarda “men” va “sen” umumlashadi. Bu, ayniqsa, Navoiy taxallusi ishtirok qilgan baytlarda yanada yaqqolroq namoyon bo‘ladi:

Ej Navāij, *sen* čekär-sen āh, lekin jaxšïdur
Ul parinïŋ zulfï bu jel birlä darham bolmasa (G‘S, 27).

Alisher Navoiy ham o‘zining lirik maqsadlarini ifodalash uchun ***uchinchi shaxs “ul” kishilik olmoshi***dan samarali foydalanadi. “Ul” – lisoniy birlik sifatida jumla subyekti (”ul” – nutq subyekti emas), “ul” – nutq doirasidan tashqaridagi uchinchi bir subyekt, begona shaxs, ayni zamonda, shu kontekst uchun aniq, lirik qahramonning holatini yaxshi bilgan, uning lirik kechinmalari, ichki tug‘yonlaridan xabardor bo‘lgan uchinchi bir shaxs. Shoir “ul”ni o‘zi uchun yaratgan. “Ul” orqali shoir o‘zini namoyon qiladi, “ul”ning nomidan gapiradi, fikr yuritadi. Bunday jumlaning sintaktik tabiati, jumla qurilishi mazmunidan shoir va “ul” mutlaqo boshqa-boshqa shaxs ekanligi haqida tasavvur uyg‘otsa ham, g‘azalxon uning “aldamchiligi”ni sezib, bilib turadi.

Ne kelsä Navāijγa sendin jüz evürmäskim,
<u>Ul</u> zarra durur, sen mehr, <u>ul</u> banda-vu sen xāvand (G‘S, 114).

Nutq egasi jumla tarkibida o‘zini aniq ko‘rsatmasa-da, uning muallif sifatida borligi his qilinadi. Bunday hollarda jumla subyekti va nutq subyekti orasidagi bog‘liqlik ekstralingvistik yo‘llar bilan aniqlanadi: u yoki bu shaxs, narsa-hodisa, ya’ni u nutq egasining nigohiga tushgan, tasavvuriga kelgan, bilgan shaxs va narsalardir. Bunday jumlalarda nutq egasi nutqda o‘zini bevosita namoyon qilmasa-da, u nazarda tutiladi. Shuning uchun Alisher Navoiy g‘azallarida *ul* olmoshining eksplitsit qo‘llanishi cheklangan bo‘lib, *ul* olmoshining aksariyati ko‘rsatish olmoshlaridir.

Bobning *“Adresat va uning Alisher Navoiy lirikasidagi o‘rni”* nomli beshinchi faslida nutq akti ishtirokchilaridan biri – adresat kategoriyasi o‘rganilgan. Manbalarda adresatlar ikki turga ajratiladi, umuman, yozma axborot yo‘naltirilgan adresat – *tashqi adresat*; axborotning ichki strukturasiga kiritilgan adresat – *ichki adresat* kabi[22]. Biror bir muallif tomonidan yozilgan poetik matnning o‘quvchisi – kitobxon *tashqi adresat* sanalsa, axborot yo‘naltirilgan, ya’ni muallifning

[21] Ҳакимов М. Ўзбек тилида матннинг прагматик талқини: Филол. фан. д-ри … дисс. – Тошкент, 2001. – Б. 63.
[22] Ковтунова И. Поэтический синтаксис. – М.: Наука, 1986. – С. 20.

murojaatlari, chaqiriqlari orqali anglashiladigan turi *ichki adresat*dir. Ichki adresat matn tarkibini tashkil qiluvchi muhim elementlardan sanaladi va muallifning ma'lum bir maqsadlarini ifodalashga xizmat qiladi. Poetik asarlar lingvistik tahlilida ayni shu hodisa, ya'ni ichki adresatlarni til vositalari orqali anglash masalasini tadqiq qilish muhim sanaladi.

Poetik shaxsni til tizimi elementlari, maxsus grammatik shakllar mazmunidan anglash mumkin. Shoir g'azallarida fe'lning ikkinchi shaxs *buyruq-istak mayli* shakllari orqali anglashiladigan ichki adresat matn mazmuniga mos holda real suhbatdosh sifatida ishtirok etmasa ham, uning ishtiroki anglashilib turadi:

Qoj tavānāliγ sözin, jād et aǯal xārïn ki, bil,
Paššalar niši qašïnda nātavāne beš emäs (G'S, 223).

Mazkur baytda qo'llangan *qo'y, yod et, bil* kabi ikkinchi shaxs buyruq maylidagi fe'llar ichki adresatga qaratilgan nutq shakli bo'lib, maslahat mazmunini ifodalaydi. Ko'plab baytlarda ichki adresatlar birgalikda, ya'ni yonma-yon qo'llanadi va ular bir-birining mazmunini to'ldiradi.

G'azallar matnida ikkinchi shaxs buyruq shakllari mazmuni to'g'ridan to'g'ri nafaqat "ichki adresat", balki shoirning o'ziga ham qaratilgan bo'ladi. Bunda til elementlari ma'nosidan "ichki adresat", ijodkorning o'ziga o'zi murojaati "o'zi uchun nutq" hamda boshqalarga qaratilgan "o'zgalar uchun nutq" ko'rinishini oladi, ya'ni mazkur grammatik shakllar o'zida ikki obyektga yo'naltirilgan nutqni mujassamlashtira oladi. Buyruq-istak shakllarining bir-biri bilan qorishib ketgan bunday nutq ko'rinishlari mazmun-mohiyatiga ko'ra bir-birini taqozo qiladi, aslo ayro emas:

Qarïdïŋ, özni qarïlar sarï salkim, jarašur,
Kirsä čālāq jigit bazmïγa čālāq jigit (G'S, 81).

Misradagi *qarïmaq, salmaq* fe'llarining ikkinchi shaxs ma'nosi: shoirga – "o'zi uchun nutq", adresatga – "o'zgalar uchun nutq" ("ichki adresat", "tashqi adresat")ga taalluqli bo'ladi. Badiiy nutqda so'zlovchining o'ziga o'zi yo'llagan nutqi *avtokommunikatsiya* sanaladi.

Odatda, ikkinchi shaxs *-gil/-γïl;-kil/-qïl* shaklida buyruq ma'nosi qat'iy ta'kid xarakteriga ega. Ammo uning ko'plik shakli *-ŋiz/ŋïz* shakli esa noma'lum adresatlarga nisbatan ham hurmat, ham buyruq ma'nosida qo'llanadi:

Dahr šoxïγa köŋül gär bermädim, ajb etmäŋiz,
Išväsi čin-mu emäs, jā ahdi jalγan-mu emäs?! (G'S, 233)

Murojaat so'zlari sintaktik birlik sifatida bayt/misralarning muhim komponenti, tarkibiy qismi sanalsa, nutq birligi sifatida shoirning bayt/misradan ko'zlagan maqsadini amalga oshiruvchi, ya'ni nutq yo'naltirilgan subyekt – adresatni ko'rsatish yoki unga ishora qilish vazifasini bajaruvchi qism sanaladi:

Dostlar, bir čāra men devāna-i šajdā üčün
Kim, ölär-men ul päripäjkär mäläksijmā üčün (G'S, 481).

Tasvir obyekti bo'lgan va mazkur nutq vaziyatida bor deb tasavvur qilinayotgan shaxsga nutqni yo'naltirish orqali adresat tasavvurida so'zlovchi, ya'ni lirik qahramondan tashqari uchinchi bir shaxsning ishtiroki borligini ham idrok qiladi. Bunda lirik qahramon unga to'g'ridan to'g'ri "do'st(lar)" deb murojaat qilsa, adresat bu murojaatlar va chaqiriq jarayonlarining obyektiga aylanadi. Ayni shu

o‘rinda adresat murojaatning o‘ziga ham qaratilganligini va “do‘st(lar)” ma’nosida o‘zi ham ishtirok etishini tushunadi. Undalmalarni mana shu xususiyatiga ko‘ra matnning kommunikativ markazi sifatida e’tirof etish mumkin.

Agar murojaat shakli uchun tanlangan so‘zning ma’nosi xususiy xarakterga (maxsus an’anaviy poetik so‘zlarga) ega bo‘lsa, lirik qahramon unga to‘g‘ridan to‘g‘ri murojaat qila olsa-yu, lekin adresat bu murojaat ma’nosidan chetda qolsa yoki murojaat nutqini o‘ziga yo‘naltirilganligini anglamasa, unda adresat murojaatlarning kuzatuvchisiga, tinglovchisiga aylanadi:

Mutribā, γam bazmïda tā navha āhaŋ äγlädiŋ,
Za’flïγ ʒismïmnï tār-u qāmatïm čaŋ äγlädiŋ (G‘S, 346).

Bobning *“Taxallusning nutq subyektiga munosabati”* deb nomlangan faslida esa shoirning g‘azal maqtasida o‘z shaxsini qayd qilishi bilan bog‘liq lingvistik xususiyatlar tahlil etilgan. Qadimdan she’riy asarlarda muallifga ishora qilish, shaxsini ta’kidlash uchun maxsus so‘z – taxallusdan foydalanilgan. Shunga ko‘ra, taxalluslarga nomshunoslik aspektida “onomastik birlik”[23], “ichi bo‘sh so‘z – deyktik birlik”[24] sifatida qaraladi. Shoir g‘azallarida *Navoiy* taxallusini ikki jihatdan o‘rganish o‘rinli.

1) taxallus – onomastik birlik – o‘ziga o‘zi murojaat:

Ček, Navāij, nāla, köz maj bersün-u baγrïm kabāb,
Čün bolur ul aj xajālï bizgä mehmān här kečä (G‘S, 530).

2) taxallus – onomastik birlik – begona, uchinchi bir shaxs:

Navāij gulšanïŋ nargisi nuʒum olγaj,
Köz üčidin aŋa qïlsaŋ hisāb vaqti nigāh (G‘S, 521).

*O‘ziga o‘zi murojaat qilingan baytlar*da lirik qahramon har uchala shaxsda Navoiy haqida so‘zlaydi:

1. **Navoiy – “men”.** Nutq egasi, shoir aksariyat hollarda o‘ziga o‘zi “ey Navoiy” deb murojaat qiladi va lirik “sen” bilan munosabat o‘rnatadi. Bunday tasvirlarda ham murojaat shakli (lirik “sen”) aslida shoir “men”iga teng, shunday ekan, nutq egasi va nutq predmeti o‘rtasidagi bunday munosabatlar qanchalik zich bo‘lmasin, grammatik “sen” nutqning haqiqiy egasidan tashqari tinglovchi shaxs ma’nosini ham ifodalaydi:

Ej Navāij, ul qujaš vaslïn gadālïγ qïlγalï
Zāhir äjläb-men sarïγlïγ dalq-u gardunvār qad (G‘S, 123).

Bu murojaat ma’nosi o‘zining maslakdoshlariga, ba’zan keng she’rxonlar ommasiga ham daxldor bo‘lishi mumkin.

2. **Navoiy – “sen”.** Bunday baytlar mazmunidan Navoiy nutq doirasidagi murojaat qilish mumkin bo‘lgan shaxs (suhbatdosh) sifatida gavdalanadi. Navoiy taxallusi nutqiy holatiga ko‘ra nutq subyekti bo‘lishga da’vogarlik qilmasa-da, murojaat shakli ma’nosidan “sen”ning “men”ga tengligi – o‘ziga o‘zi murojaat, ya’ni *avtokommuikatsiyadir*:

Ej Navāij, häm zamāndïn, häm zamāna ahlïdïn
Här zamān γam jetsä jüzlän kulba-ji hammārγa (G‘S, 563).

---

[23] Нуритдинова Р.С. Ўзбек ономастикаси терминларининг лисоний таҳлили: Филол. фан .номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2005. – Б. 22.

[24] Ҳакимов М. Ўзбек тилида матннинг прагматик талқини: Филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 2001. – Б. 283.

Agar o‘ziga o‘zi murojaat tipidagi gaplarda lirik “sen” shoirning “men”idan tashqari “boshqalar” ma’nosini ham ifodalasa, ya’ni she’riy nutq “sen”<“men”<“ular//boshqalar”ga qaratilgan bo‘lsa, bu nutq turi *avtoadresatsiya*dir.

3. **Navoiy – “u”.** Agar maqta’ tarkibidagi jumla uchinchi shaxsda shakllangan bo‘lsa, nutq subyektlari munosabatlaridagi farqlar yaqqol seziladi. Bunday baytlarda nutq subyektlari – nutq egasi ham, uning lirik qahramoni ham o‘zi haqida uchinchi shaxs tilidan so‘zlaydi. Navoiy ham, avvalgi baytlar tahlilida aytilganidek, nutq subyektlaridan tashqarida turuvchi uchinchi bir shaxsga – tasvir obyektiga aylanadi:

Ej Navāij, bu xazān olγaj bahār ilä badal,
Kelsä davlat gulbuni šahzāda-ji sāhibǯamāl (G‘S, 356).

Bunday baytlarda taxallus nutq egasi haqidagi tasavvurlarimizni to‘la shakllantirsa ham, baytning grammatik strukturasi shoirning nutq subyekti maqomi darajasini ma’lum darajada so‘ndiradi yoki inkor qiladi.

“Alisher Navoiy lirikasida sintaktik birliklar semantikasi va poetikasi” deb nomlangan ikkinchi bob to‘rt faslni o‘z ichiga oladi. Dastlabki fasl “*Bayt strukturasi va sintaksisi haqida”* deb nomlangan bo‘lib, bayt strukturasidan o‘rin olgan mavjud qurilmalar kommunikativlik belgilariga ko‘ra tasniflangan. *“Kommunikativlikni ifodalovchi propozitsiyalar”* deb nomlangan birinchi bandda kommunikativlikka xizmat qiluvchi propozitsiyalar, ya’ni predikativlik belgilariga ega bo‘lgan she’riy jumlalar tahlil qilingan[25].

Ɣam tašïn ǯismïmda pajkāniŋ bilä band äjlädiŋ,
Ul samarnï bu jïγačqa barg pajvand äjlädiŋ (G‘S, 361).

Mazkur bayt tarkibidagi har bir misra mustaqil jumlalar asosida shakllangan bo‘lib, birinchi misradagi *band aylading,* ikkinchi misradagi *payvand aylading* shakli kesim bo‘lib, u tasdiq, o‘tgan zamon, ikkinchi shaxs, birlik, xabar mayli kabi predikativlik belgilariga ega.

Navoiy g‘azallari tahlili davomida jumla predikatining predikativlik belgilarisiz qo‘llanish holatlari ham kuzatildi va bunday jumlalar aslida (yashirin, belgisiz) tuslangan she’riy jumlalardir. Jumla markazi sanalgan fe’l-kesim (ravishdosh)ning belgisiz tuslanishi har uchala shaxsda ham kuzatiladi. Masalan, birinchi va uchinchi shaxslarda:

Ul aj qasdïma tijγ-i burrān *čekib* (durur/dur),
Men allïda šukrānaγa ǯān *čekib* (men) (G‘S, 65).

To‘liq baytga yoki uning tarkibidagi bir misraga teng keluvchi murakkab murojaat shakllari sodda gap ko‘rinishiga ega bo‘lib, yaxlit holda murojaat ma’nosini ifodalaydi. Bu turdagi murojaat shakllari ko‘pincha “ey” undov so‘zi bilan qo‘llangan elliptik jumlalar ko‘rinishida uchraydi:

Ej meni särgäštädin gah fāriγ-u gāhi malul (aylagan),
Qahrïŋ ul, lutfuŋ bu, jā rabkim, ne ādatdur saŋa? (G‘S, 17)

“Kommunikativlikka ega bo‘lmagan propozitsiyalar” deb nomlangan bandda predikativlik belgilariga ega bo‘lmagan fe’lning ravishdosh, sifatdosh, harakat nomi o‘ramlari, ularning she’riy matndagi o‘rni va ma’nosi tahlil qilingan. Mazkur yarim

[25] Нурмонов А. ва б. Ўзбек тилининг мазмуний синтаксиси. – Тошкент: Фан, 1992. – Б. 44-45.

predikatlar she'riy nutqda ham bir butun holda asosiy predikatning argumenti pozitsiyasida – qo'shilma predikat vazifasida keladi. Ko'p predikatli sodda gaplarda argument pozitsiyasida keluvchi predikativlik belgisiga ega bo'lmagan predikatlar ma'lum propozitsiyani ifodalasa ham, gap bo'lib shakllana olmaydi[26]. G'azallarda uning quyidagi turlari qayd qilinadi.

Holat mazmunli propozitsiyalarda g'azallar matnida fe'lning *-b (-ib/-ïb//-üb/-ub); -mäj/-maj//-mäjin/-majïn; -bän/-ban (-ibän/-ïban//-übän/-uban)* ravishdosh shakllari holat ma'nosini ifodalanadi:

Čāra-ji kār *istäbän (holat)* bečāralïγ köŋlüm tilär,
Xānumān tarkin *qïlïb (holat),* avvāralïγ köŋlüm tilär (G'S, 177).

Payt mazmunli propozitsiyalar ravishdoshning birdan ortiq shakli yordamida hosil qilinadi: *-b (-ib/-ïb//-üb/-ub); -gäč/-käč//-γač/-qač* kabi.

Husnï artar juzda zulfin anbar *afšān äjlägäč,*
Šam ravšanraq bolur tārïn *parišān äjlägäč* (G'S, 98).

Maqsad mazmunli propozitsiyalar *-gäli/-γalï//-käli/-qalï* ravishdosh shakllari asosida yuzaga keladi:

Qïlγalï xil'atïn ul sarvi güländām qïzïl,
Qïldï qan tökmäk ilä dahrni gälfām qïzïl (G'S, 390).

Harakat nomining *-mäk/-maq* shakli, o'tgan zamon sifatdoshning *-miš/mïš; -gän/-γan//-kän/-qan,* kelasi zamon *-güči/küči//γučï/qučï,* payt va chegara ma'nosidagi *-günčä/γunča//-qunča/-künčä* shakllari ham ikkilamchi propozitsiyadir.

-sa shart mayli shakli orqali yuzaga kelgan propozitsiyalar. G'azallar matnida qo'llangan *-sa* shart mayli bilan ifodalangan jumlalar sintaktik-semantik jihatdan hozirgi o'zbek tilidagi shaklidan deyarli farq qilmaydi. Bunday jumlalar hozirgi o'zbek tilidagi kabi *agar* yuklamasi bilan qo'llanib shart, payt ma'nosini, ba'zan *šājad(ki), kāš(ki)* yuklamasi bilan qo'llanib istak ma'nolarini ifodalaydi. Agar *-sa* shakli yordamida hosil qilinsa, shart va payt mazmunidagi sintaktik butunlik ikki propozitsiyali, *šājad(ki), kāš(ki)* yuklamalari bilan shakllangan bo'lsa, bir propozitsiyali gaplar sanaladi.

Nošïdïn elgä guftugu, ej haǯr ičär-men men aγu,
*Kāš ölsäm-u köŋlümni bu anduhdïn qutqar**sa**m* (G'S, 415).
*Tufraγïmdïn kāški ǯism-e murattab qïl**sa**ŋïz,*
*Bir ït ölsä köjidä ruhïγa qālab qïl**sa**ŋïz* (G'S, 214).

Bobning *"She'riy matnda aktuallashish"* deb nomlangan ikkinchi faslida she'riy jumlaning tema (ma'lum) va rema (yangi)ga munosabati o'rganilgan. Mavjud tadqiqotlarda nasriy nutq materiallarining aktual bo'laklanishi tahlilga tortilgan[27] bo'lsa-da, ammo she'riy jumlaning aktual qismlarga ajratilishi hali tadqiq etilmagan. She'riy asarlarda tema shaklan ifodalangan yoki ifodalanmaganligidan qat'i nazar, asarning markazida turuvchi lirik shaxs lirik qahramondir. O'z navbatida, uning "men"ini ifodalovchi birinchi shaxs birlikdagi *men* olmoshi sanaladi. Lirik "men-markaz" doim muallifning nuqtayi nazarini belgilaydi, shuning

[26] Нурмонов А. ва б. Юқоридаги асар, 1992. – Б. 72.
[27] Ҳайитметов К. Ўзбек тилида гапнинг актуал бўлиниши ва позицион масалалари. – Тошкент: Фан, 1984. – Б. 159.

uchun u matn strukturasiga kiritiladi va kommunikativ markazga aylantiriladi[28]. Bu nutq shakli adabiyotlarda “egosentrik” nutq deb yuritiladi. Quyidagi baytda shoir “men”i – egosi va fikr mavzusi bir nuqtada birlashganligini ko‘rishimiz mumkin:

Men ʒahāndïn kečtim-u, kečmäs meniŋ ʒānïmdïn el,
Men ilik ʒāndïn jüdüm, čekmäs ilik qanïmdïn el (G‘S, 370).

G‘azal misralarida o‘quvchining diqqatini o‘ziga tortadigan bir jihat borki, u ham bo‘lsa, matla baytlarida markaziy bo‘lak – kesimning bayt uchun umumiyligidir:

Zihe, husnuŋ zuhurïdïn *tušub* (tur) har kimgä bir savdā,
Bu savdālar bilä kavna-ji bāzārïda juz γavγā (G‘S, 2).

Jumla predikati *tušub(tur)* har ikkala misra uchun ham umumiy bo‘lib, ayni o‘rinda aktual vazifa ham bajarmoqda. Birinchidan, baytda *tušub(tur)* so‘zi jumla markaziy bo‘lagi sifatida (o‘zining yashirin predikativlik belgilariga ega emasligi bilan) e’tiborli bo‘lsa, ikkinchidan, uning keyingi bayt uchun ham markaziy bo‘lak ekanligi va o‘quvchi diqqatini o‘ziga tortishi bilan ahamiyatlidir. Shuningdek, she’riy misra jumlalarini aktual bo‘laklarga ajratishda nasriy asarlardagi kabi *maxsus so‘zlar* va grammatik shakllarning o‘rnini inobatga ham olish kerak.[29] G‘azallar matnida *maxsus so‘zlar* sifatida so‘roq olmoshlari, *chun -ki/kim, to* bog‘lovchilari, *-mi, -oq, -dir* yuklamalari qo‘llanishi kuzatiladi.

Quyidagi bayt misralarida *-ki* va *-durur* unsurlari jumlaning tema-rematik munosabatini ta’minlashga xizmat qiladi:

Sačïŋ ki här taraf ajïrdï bir muanbar šāh,
Hajāt gülšaniŋ sunbulïdurur har šāh (G‘S, 113).

Shuningdek, *-durki* shakli kengayib, *-dekdürki* ko‘rinishida qo‘llangan holatlarni kuzatish mumkin:

Qāmatï haʒrïda har jan jaradïn qanlïγ köŋül
Bir kijikdekdürki, oq zahmi bilä bolmïš figār (G‘S, 172).

Quyidagi baytda forsiy yoyi ishorat va *-dur* yuklamasi she’riy jumlaning aktuallashishini ta’minlagan:

Safhaedur ārazïm debāča išq avrāqïγa
Qan jašïïmnïŋ xatlarï šïŋarf birlä bāblar (G‘S, 173).

She’riy jumlaning kommunikativ markazi – *safhaedur*. U – tema, jumlaning qolgan qismi – rema. Uning transformatsion shakli: *Yuzimning bir sahifasi ishq varag‘iga debochadir*.

Bobning *“Gapning kommunikativ turlari”* deb nomlangan navbatdagi faslida jumlaning darak, so‘roq, buyruq mazmunini ifodalashi tahlil qilinadi. Hozirgi o‘zbek tilida gapning kommunikativ turlari tadqiqotchi A.Ahmedov[30] tomonidan monografik planda o‘rganilgan va ular ifoda maqsadiga ko‘ra: 1) darak, 2) so‘roq, 3) buyruq, 4) istak[31] kabi turlarga ajratiladi.

---

[28] Силман Т. Заметки о лирике. – Л.: Советский писатель, 1977. – С. 224.
[29] Нурмонов ва б. Ўзбек тилининг мазмуний синтаксиси. – Тошкент: Фан, 1992. – Б. 105-106.
[30] Аҳмедов А. Ўзбек тилида гапнинг коммуникатив турлари. – Тошкент: Фан, 1979. – Б. 172.
[31] Нурмонов А. ва б. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – Б. 46.

Navoiy g‘azallari matnida qo‘llangan *darak gaplar*ning shakliy paradigmasi nasriy asarlari paradigmasidan[32], shuningdek, hozirgi o‘zbek adabiy tilidan deyarli farq qilmaydi. Lirik asarlarda darak gaplarning asosiy vazifasi axborot tashishdan iborat.

Poetik asarlarda *so‘roq (olmosh)*larning qo‘llanishi o‘ziga xos, ya’ni bunday jumlalarda so‘roq ma’nosi, uning apellyativ vazifasi kuchsizlanadi yoki butunlay yo‘qoladi. Buni aksar baytlarda so‘roq so‘zlarning ma’nosi ochiq (ya’ni javobsiz) qoldirilganligi bilan izohlash mumkin. Ular ham darak gaplar kabi she’rning tarkibiy elementi sifatida informativ qiymatga ega[33]. G‘azallarda so‘roq mazmunini hosil qilishda *ne qïlmaq? ne bolmaq? ne (qandaj – sifat)? ne(dän, sababdan)? netäk? qanï? qajsï? Ne üčün//nevčün? negä? netmaq* (qanday qilmoq)? kabi so‘roq olmoshlari[34], *-mu, āyā* so‘roq yuklamalari qo‘llanadi. Sof so‘roq olmoshlaridagi kabi *-mu* yuklamasida ham so‘roq ma’nosi kuchsizlanadi, adresatdan javob yoki munosabat bildirish talab qilinmaydi. U adresatning e’tiborini tortish, diqqatini jalb qilish vazifasini bajaradi.

Buyruq gaplarning she’riy matndagi vazifalari haqida dissertatsiyaning dialogizatsiya hamda adresatning ifodalanishi fasllarida to‘xtalib o‘tildi. Shoir g‘azallarida *istak gaplar* so‘zlovchining istak-xohishini ifodalash uchun xizmat qiladi. Ammo ular mazmunan darak gaplar kabi informativ qiymatga ega bo‘ladi. G‘azallarda istak ma’nosi *-sa/-sä* shart mayli, *-gäj/-γaj//-käj/-qaj* istak shakli hamda forsiy *kāš/ki, šājad* shakli yordamida hosil qilinadi:

Nošïdïn elgä guftugu, ej hažr ičär-men men aγu,
Kāš ölsäm-u köŋlümni bu anduhdïn *qutqarsam* (G‘S, 415).

Šājad/ki yuklamasi yordamida hosil qilingan istak gaplarning predikati *-gäj/-γaj//-käj/-qaj* shakllaridan biri bilan ifodalangan bo‘ladi:

Ej köŋül, salma özüŋni dard ilä mardāna bol,
Bizni, *šājadkim*, bu jaŋlïγ *imtihān etkäj* firāq (G'S, 314).

Ishning uchinchi bobi **“Alisher Navoiy lirikasida sintaktik birliklar pozitsiyasi”** deb nomlanadi. Uning birinchi fasli “*Nutq aspektida inversiya*” masalasiga bag‘ishlangan. Navoiy g‘azallarida inversiyaning turli ko‘rinishlari aks etgan. Masalan, inversiya misra va bayt qismlari gap bo‘laklari (so‘z birikmalari), qo‘shma so‘zlar, frazeologizmlar va qo‘shma so‘zlar (komponentli fe’llar) orasida yuz beradi. Shunga ko‘ra, ularni *sintaktik inversiya, morfologik inversiya, frazemalar inversiyasi* nomi ostida o‘rganishni ma’qul topdik.

Faslning birinchi bandi *“Sintaktik inversiya”* tadqiqiga bag‘ishlangan. Nutqning odatdagi tartibi tilshunoslar tomonidan turlicha nomlangan: to‘g‘ri tartib, normal tartib, standart tartib, neytral tartib, odatdagi tartib kabi. She’riy jumla tarkibidagi gap bo‘laklarining joylashishi poetik qonuniyat asosida yuz beradi. Ulardan qandaydir bir maxsus yoki qo‘shimcha axborot olish yoki uzatish kutilmaydi. Tartibi buzilgan gap bo‘laklarining barchasi teng qiymatli sanaladi.

---

[32] Қаранг: Раҳматов М. Алишер Навоийнинг насрий асарларида эргаштирувчили боғловчили гапларнинг синтактик-семантик хусусиятлари: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2008. – Б. 14-20.
[33] Нурмонов А. ва б. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – Б. 52-53.
[34] Юсуфов Б. Местоимения в староузбекском литературном языке (XV-XVI вв): Автореф. дисс. ... канд. фил. наук. – Ташкент, 1988. – С. 14.

G‘azallardagi sintaktik shakllar inversiyasini ikki turga ajratish mumkin: bosh bo‘laklar inversiyasi va ikkinchi darajali bo‘laklar (so‘z birikmalari) inversiyasi. Kesimning misra boshida qo‘llanishi inversiyadan dalolatdir:

Uzdi mendin dostluq ul šox-i sijmintan jana,
Ančakim mümkindür, etgil ajš, ej dušman, jana (NN, 540).

G‘azallarda deyarli barcha gap bo‘laklari inversiya tartibida qo‘llanadi. Ulardan faqat sifatlovchi+sifatlanmish orasidagina inversiya kuzatilmaydi, qaratqich+qaralmish munosabatli birikmalar orasida kam bo‘lsa-da, inversiya uchraydi:

Xat ermäs ulki, čïqarïb *sujini mehrigijahnïŋ*
Qujaš sahifasïda rahmat ājati bitilibdür (G‘S, 146).

Qo‘shma gap qismlarining inversiyasi, asosan, ergash gapli qo‘shma gaplarga taalluqli bo‘lib, bog‘lovchisiz hamda bog‘langan qo‘shma gaplarda, deyarli, uchramaydi. Ergash gapli qo‘shma gap komponentlaridan birining tarkibida ergashtiruvchi vosita mavjudligi komponentlar o‘rnining o‘zgarishiga qaramay, ular orasidagi mazmuniy munosabatning aynan saqlanishini, saqlanganda ham odatdagisidan ta’sirliroq bo‘lishini ta’minlaydi[35]. *Agar, gar, magar* yordamchi vositalari bilan shakllangan shart ergash gapli qo‘shma gaplarning inversiyasi quyidagicha namoyon bo‘ladi:

Jār γāfillïγïdïn zulfïda ʒān berdi Navāij,
Sajd ölär dāmda, *sajjād agar bolmasa āgah* (G‘S, 547).

Inversiya she’riy nutqda uslubiy bo‘yoqdorlikni ta’minlash, ekspressivlikni oshirish vazifasini bajaradi.

“Morfologik inversiya” deb nomlangan bandda sintaktik birliklarning asosi sanalgan qo‘shma fe’llarning inversiyaga uchrashi tahlilga tortilgan. Navoiy g‘azallarida qo‘shma ot, sifat, son, olmosh, ravish so‘z turkumlariga qaraganda qo‘shma fe’llar inversiyasi tez-tez kuzatiladi. Qo‘shma fe’llar asosan *qilmoq, bo‘lmoq, aylamoq, ermas, erdi, ermish* kabi yordamchi fe’llar asosida shakllangan. Ulardan *qilmoq* va *aylamoq* fe’llari qo‘llanishi va inversion faolligi bilan ajralib turadi:

Ögüb ʒannat gülin vāiz tilärkim, *äjläsäm savdā*
Nečä eski diramγa Jusufum, vah, körgil idrākin (G‘S, 441).

“Frazemalar inversiyasi” deb nomlangan faslda g‘azallarda frazeologizmlarning inversiyaga uchrash imkoniyatlari tahlil qilingan. Odatda, barqaror birikmalar bo‘laklarga bo‘linmaydi, ular yaxlit holda qo‘llanadi. Ammo bu qonuniyat she’riy asarlarda buziladi, ya’ni frazeologizmlar inversiyaga uchrab, she’riy tizimda “erkinlik”ka erishadi (ularning barqarorligi o‘z ahamiyatini yo‘qotadi), ya’ni ular she’riy misrada turli darajada “bo‘laklanadi/sinadi”. Ular ham inversiyaga uchrab bayt/misraning simmetrikligini yuzaga chiqarishda ishtirok qiladi.

G‘azallarda frazeologik birlik tarkibidagi so‘zlarning inversiyaga uchrashi bilan bog‘liq quyidagi holatlarni qayd etish mumkin: a) bayt/misra tarkibida frazeologik birlik uzvlari kontakt holda qo‘llanilib, inversiyaga uchraydi; b)

[35] Мамажонов С., Маҳмудов У. Услубий воситалар. – Фарғона: ФарДУ, 1996. – С. 47.

bayt/misrada frazeologik birlik qismlari inversiyaga uchraydi va distant holatda bo‘ladi, uning tarkibida inversiyaga uchragan erkin gap bo‘laklari qo‘llanadi. Iboraning kontakt holda inversiyaga uchrashiga misol*: boshi oqarmoq (erta keksaymoq):*

Ne taŋ uzārïm *agar* sarγarïb, qïzardï jašïm
Ki, jüz qaralïγ-u isjān bilä *aqardï bašïm* (G‘S, 396).

Ikkinchi holatda esa *ko‘rib ko‘rmasga solmoq* (e’tibor bermaslik) frazeologizmi vazn talabi bilan misra bo‘ylab taqsimlanadi:

Nečük ölmäj meni bemār ki Isā nafasïm,
Kördi-ju, hālïmnï-ju *körmäsgä* özin *saldï* jana (G‘S, 542).

Bobning *“Tadmin va sintaktik pozitsiya”* deb nomlangan faslida she’riy sintaksis bilan bog‘liq holda yuzaga keladigan poetik usul tadqiq qilingan. Poetik janr tarixida tadmin – “poetik ko‘chiruv” Alisher Navoiy g‘azaliyotida maxsus poetik usul darajasiga ko‘tarilgan[36]. Shoir birinchi misrada aytmoqchi bo‘lgan fikrini keyingi misrada davom ettirishi, ya’ni birinchi misraga sig‘may qolgan ayrim grammatik shakllar keyingi misraga yoki aksincha keyingi jumlaning shakliy ifodalari, ayrim qismlari birinchi misraga ko‘chirilishi mumkin. “Mumtoz poetika talablariga binoan bayt misralarining har biri mustaqil ma’no va mustaqil ifoda shakliga ega bo‘lishi lozim. Biroq voqelik ta’sirida lirik kechinma tabiatining murakkablashib borishi baytning birinchi misrasidagi fikrning ikkinchi misraga ko‘chishini, ya’ni birinchi misradagi poetik g‘oyaning ikkinchi misrada yakunlanishini ham taqozo qiladi va mana shunday hollarda bayt tarkibidagi misralar o‘rtasida shoir ***tadmin*** qilishga majbur bo‘lib qoladi[37].”

<u>Fikr oqimining uzilishi:</u>

Suγakim tušmïš qïzarγan bärglär*, körgän kiši*
Köz jašïm ičrä bayïr pargālasï äjlär xajāl (G‘S, 386).

<u>Qo‘shma fe’l va uning qismlari orasidagi bo‘linish:</u>

Āh dudïn, ašk qanïn, nāla maddïn *äjlägil*
Zulfi sunbul, jüzi gül, sarv-i xirāmānïmγa arz (G‘S, 279).

<u>Kosh+ki (yoki koshki) yuklamalari:</u>

Išim čü savma’ šajxï bilä tuzälmädi, *kāš*
Ki, emdi mäjkädä pirïγa iltiǯā qïlsam (G‘S, 436).

Ishning to‘rtinchi bobi **“Alisher Navoiy lirikasida sintaktik birliklarning kommunikativ xususiyatlari”** deb nomlangan. Uning birinchi fasli *“Murojaat shakllarining kommunikativ vazifasi”* tadqiqiga bag‘ishlanadi. R.Yakobson o‘zining “Lingvistika va poetika” maqolasida poetik asarlar kommunikatsiyasiga bog‘liq vazifa shakllarini aniqlagan va tasniflagan: a) kommunikativ (referentiv – narsa, hodisa nomi); b) apellyativ (tinglovchini muayyan bir xatti-harakatni bajarishga undash); v) poetik (estetik); g) ekspressiv (yoki emotiv); d) fatik (nutqiy aloqani ushlab turish yoki kontakt o‘rnatish); e) metatil kabi[38]. She’riy asarning

---

[36] Саримсоқов Б. Алишер Навоий поэтик синтаксисидаги бир усул ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти, 2001. – № 2. – Б. 10-14.
[37] Жўраева Н.Г. Ўзбек мумтоз шеъриятида байт ва унинг поэтикаси: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2004. Б. 159.
[38] Якобсон Р. Лингвистика и поэтика. Структурализм: “за” и “против”. – М.: Прогрес, 1975. – С. 475.

kommunikativ vazifalari muloqot ishtirokchilari, elementlari yoki kommunikatsiya modellariga qarab o‘zgarib turishi mumkin.

Navoiy g‘azallarida qo‘llangan murojaat shakllarining *asosiy vazifasi* quyidagilarda namoyon bo‘ladi: a) *kommunikativ (referentiv) vazifa*; *b*) *bayt/misrani shakllantirish/-to‘ldirish;* b) *badiiylikni ta’minlash (badiiy obraz va badiiy tasvir)* vazifasi. Ba’zan murojaat shakllari mazmunidan boshqa vazifalarini ham ajratish mumkin:

Joqki ul köz qaradur husnuŋ ara, *ej qaraköz*
Kim, qašïŋ daγï erür asru qara, *ej qaraköz* (G‘S, 218).

Demak, birinchi galda shoirning murojaat so‘zlarini qo‘llashdan asosiy maqsadi adresatni nomlash bo‘lib, bu uning *nominativ vazifasi* sanaladi. Shoir *yor*ni tavsifiy belgilariga ko‘ra *ey qorako‘z* deb nomlaydi. Shoir *qorako‘z* nomi bilan xitob qilar ekan, uning e’tiborini tortishga harakat qiladi, bu esa uning *apellyativ vazifasi*dir. Lirik qahramonning adresat bilan aloqa o‘rnatishi *kommunikativ vazifasi* sanaladi. Shoir emotsional-ekspressivlikni ta’minlaydigan *qorako‘z* murojaati orqali o‘zining subyektiv-tavsifiy bahosini beradi, bu – uning *konnotativ vazifasi*. Nutq subyekti adresatni murojaat so‘zlari orqali tavsifiy baholaydi, unga bo‘lgan hissiy munosabatini ifodalaydi, o‘zining ruhiy holatini ham ochishga harakat qiladi va adresatda ham xuddi shunday ruhiy holatning paydo bo‘lishini ko‘zlaydi. Bu *psixologik vazifa* yoki *adresatni tavsiflovchi murojaatdir*. Adresatni boshqalardan ajratish, unga ishora qilish *deyktik (ishoraviy) vazifa*ni anglatadi.

Ikkinchi fasl *“Undalmalarning subyektiv baho munosabatini ifodalashi”* deb nomlangan. Murojaat shakllarining semantik-konnotativ xususiyatlari N.Axmedova[39], nominativ birliklarda konnotativlikning ifodalanishi M.Mamadaliyeva va S.Maksumovalar tomonidan o‘rganilgan[40], Alisher Navoiyning lirik asarlarida murojaat shakllari suhbatdosh, ya’ni tinglovchini nomlash, uning e’tiborini nutq jarayoniga tortish, o‘zining asosiy denotati bilan bog‘liq holda subyektivlik, uslubiylik, emotsionallik, ekspressivlik kabi semalarni tashish vazifasini bajarishi bilan birga, so‘zlovchining shaxsiy munosabatini ham ifodalash uchun xizmat qiladi. Shoir ko‘pincha o‘zining subyektiv qarashlarini ifodalash uchun ijobiy yoki salbiy semali so‘zlardan foydalanadi va shu nominativ shakllar orqali o‘zining his-tuyg‘ularini ham ifodalaydi. Masalan:

Jïγlasam aččïγ malul olmaq nedür, *ej xoblar,*
Hazl üčün sizgä baqïb, häm šakarxand äjläŋiz (G‘S, 221).

Ba’zan egalik affiksining I shaxs birlikdagi shaklini metaforik qo‘llanishdagi so‘zga biriktirish orqali nutq subyektining ijobiy baho munosabati ifoda etiladi. Bunda shoir nutq yo‘naltirilgan shaxsga nisbatan erkalash, suyish kabi ijobiy munosabatini ifodalab, pragmatik ma’no hosil qilishga erishadi[41]:

Köŋlägiŋdinkim tapar ʒān dam-badam Jusuf isi,
Ej azizïm, men häm ul köŋläk ara bir tar-men (G‘S, 479).

---

[39] Аҳмедова Н. Ўзбек тилида мурожаат бирликларининг семантик-коннотатив тадқиқи: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2008. Б. 154.

[40] Мамадалиева М. Ўзбек тилида номинатив бирликларнинг коннотатив аспекти. – Наманган, 1997; Максумова С. Э.Воҳидов асарларида коннотативликнинг ифодаланиши: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2012. – Б. 88.

[41] Максумова С. Ўша жойда.

“Murojaatlarning sintaktik shakllarga munosabati” deb nomlangan uchinchi faslda murojaat shakllarining gap tarkibidagi sintaktik shakllarga grammatik jihatdan aloqadorligi o‘rganilgan. Ishda murojaat shakllari jumla struktura elementlari bilan aloqadorligiga ko‘ra ikki turga ajratildi:

1. Murojaat shakllarining jumla struktura elementlari bilan aloqasi saqlanib qoladi:

Tark qïl, *sen* häm Navāijdek havāsïn, *ej köŋül*,
Jāki här dam bir taraf majlin körüb, xunāba jut (G‘S, 71).
Ej Navāij, er esäŋ dunjā arusïn *qïl talāq,*
Bir jolï *bolma zabun* bu zāli makkār allïda (G‘S, 26).

2. Murojaat shakllarining jumla struktura elementlari bilan aloqasi mavjud bo‘lmaydi:

Ej Navāij, zulmïdïn der-men ki išqïn tark etäj,
Bu nazardïn γājib oldï, joq jana sabr-u šikeb (G‘S, 49).

“Kirish so‘zlar” faslida Navoiy g‘azallarida bayt/misra sintaktik struktura elementi sifatida joy olgan kirishlarning sintaktik-semantik tahlili berilgan. Lirik asarlar matnida kirish so‘zlar nofaol. Ammo mavjud kirishlar boshqa sintaktik shakllar kabi shoirning poetik imkoniyatlaridan kelib chiqib bayt/misraning turli o‘rinlarida qo‘llangan. Ular aksariyat hollarda boshqa gap bo‘laklaridan *-ki/-kim* yuklamalari bilan ajratilgan. G‘azallarda *albatta, lojaram, bovujud (bovujudi ulkim), filjumla* kabi o‘zlashma so‘zlar shoirning subyektiv munosabatini ifodalashga xizmat qilgan.

O‘z qatlamning aksariyatini mustaqil so‘zlardan ko‘chgan so‘zlar tashkil qiladi. Mustaqil so‘zlar she’riy jumlada modal so‘zga aylanishi uchun o‘zining grammatik xususiyatlarini, leksik ma’nosini to‘liq yoki qisman yo‘qotishi hisobiga sodir bo‘ladi. Bunda leksik birliklarning turli pragmatik belgilarga ega bo‘lgan grammatik ma’noni ifodalashi yuzaga keladi. Bu holat tilshunoslikda *desemantizatsiya* deb yuritiladi. Agar muallif nutqida *de-* so‘zi uchinchi shaxsda *der, debtür* shaklida qo‘llansa, keskinlik, qat’iylik ma’nosi sezilib turadi, shu sababli uning semantikasida o‘zgarish yuz bermaydi. Ammo u uchinchi shaxs ko‘plikda *derlär* yoki *debtür(lär)* shaklida qo‘llansa, nutq egasi subyektiv nigohining reallashuvi ma’nosi seziladi. Bunda so‘zning leksik ma’nosi qisman yo‘qolib, nutq vaziyati bilan bog‘liq pragmatik ma’nolar yuzaga chiqadi. Endi unga yuklangan mazmun bevosita suhbatdoshga ta’sir etishga qaratiladi. Bu so‘z ma’no jihatidan hozirgi o‘zbek tilidagi *aytishlaricha* kirish so‘zi ifodalovchi ma’noga teng keladi:

Tāza sarve bāγ ara, *derlarki,* nāz āγāz etär,
Här dam anï körgäli köŋlüm qušï parväz etär (NSh 159).

